

**U. Jabbarov, S. Matquliyeva,
Sh. Qo'chqarov**

**“BUXGALTERIYA HISOBI
NAZARIYASI” FANIDAN
MASALALAR TO‘PLAMI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**AL-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

U. Jabbarov, S. Matquliyeva, Sh. Qo‘chqorov

**“BUXGALTERIYA HISOBI NAZARIYASI”
FANIDAN MASALALAR TO‘PLAMI**
(O‘quv-uslubiy qo‘llanma)

Mazkur uslubiy qo‘llanma UrDU ilmiy-uslubiy ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya qilingan.

Urganch – 2013

UDK: 657.1(076.1)

KBK: 65.052

J-13

U. Jabbarov, S. Matquliyeva. Sh. Qo'chqarov. **Buxgalteriya hisobi nazariyasi fanidan masalalar to'plami**. Mas'ul muharrir professor S. Salayev. O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, al-Xorazmiy nomli Urganch davlat universiteti. Urganch, Urganch davlat universiteti noshirlik bo'limi, 2013. 96 bet.

KBK65.052ya73

Ushbu masalalar to'plami kasb-hunar kollejlari iqtisodiy yo'nalishlar talabalari uchun buxgalteriya hisobi kursi dasturi asosida tuzilgan bo'lib, unda moliyaviy tahlil-iqtisodiy tahlilning bir turi sifatida qo'yilgan masaladan kelib chiqqan holda, u ishlab chiqarish-tijorat faoliyatini boshqarish muammolarini aniqlashga hamda korxonalar rahbarlarining faoliyatiga baho berish, moliyaviy tahlil mablag'larning investisiya qilish yo'nalishlarini tanlashda qo'llanilishi mumkin, shuningdek, moliyaviy tahlilning ayrim ko'rsatkichlari va butun moliyaviy faoliyatni bashorat qilish quroli sifatida namoyon bo'lishi haqida fikr yuritiladi.

Masalalar to'plamida moliyaviy tahlilga bozor sharoiti (raqobat, "yashovchanlik" muammosining keskinlashuvi)dan kelib chiqib, qo'yiladigan yangi talablar hisobga olingan.

Masalalar to'plamida keltirilgan ma'lumotlar shartli hisoblanadi va axborot materiali sifatida xizmat qila olmaydi.

Mas'ul muharrir S. Salayev, professor

Taqrizchilar: S. Atajanov, 3-darajali davlat soliq xizmati maslahatchisi,
U. Matyoqubov, iqtisod fanlari nomzodi

ISBN 978-9943-4032-3-9

© UrDU noshirlik bo'limi, 2013.

© U. Jabbarov, S. Matquliyeva,
Sh. Qo'chqarov. **Buxgalteriya hisobi nazariyasi fanidan masalalar to'plami**.

MUNDARIJA

So‘zboshi.....	4
1. Xo‘jalik mablag‘lari va schotlar rejasi.....	5
2. Balans va uning turlari.....	14
3. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni hisobga olish.....	22
4. Pul mablag‘larining hisobi.....	28
5. Materiallar va o‘stiruvdagi mollar hisobi.....	32
6. Tayyor mahsulot va tovarlarni hisobga olish.....	36
7. Mehnatga haq to‘lashni hisobga olish.....	40
8. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish.....	45
9. Korxonada daromadlari va xarajatlari hisobi.....	51
10. Korxonalardan olinadigan soliqlar hisob-kitobiva hisobini yuritish tartibi.....	55
11. Korxonalarda xususiy kapitalni hisobga olish.....	63
12. Korxonada hisobot tuzish tartibi.....	66

Ilova

1. Fermer xo‘jaliklarida xo‘jalik muomalalarini hisobga olish daftarlari.....	71
2. Korxonalar moliya xo‘jalik faoliyatning buxgalteriya hisobi schotlar rejasi.....	81

SO‘ZBOSHI

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda buxgalteriya hisobini shunday tashkil etish kerakki, u tejamli bo‘lib, kam mablag‘ sarflagan holda ichki va tashqi foydalanuvchilarni ko‘proq axborotlar bilan ta‘minlasin. Buxgalteriya hisobini hozirgi zamon talabi darajasida tashkil etishni buxgalteriya hisobini qonuniy tartibga solish va uning me‘yoriy bazasini shakllantirish, uslubiy ta‘minot, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, xalqaro professional tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali amalga oshirish mumkin.

O‘zbekiston respublikasida “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni oliy ta‘lim sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning asosiy vazifalaridan biri o‘quv jarayonida talabalarni mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash, ishlab chiqarish muammolarini yechish va tahlil qilishni o‘rganishdan iboratdir. Buning uchun talabalar amaliy mashg‘ulotlarda hozirgi zamon ishlab chiqarish jarayonlariga mos keladigan masalalarni yechish, tahlil qilib xulosa va takliflar tayyorlashni o‘rganishlari zarur.

Mazkur amaliy mashg‘ulotlar uslubiy qo‘llanmasi va masalalar to‘plami “Qishloq xo‘jaligida buxgalteriya hisobi” fanini namunaviy dasturi asosida tuzildi. Qo‘llanma qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi noiqti-sodiy soha mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha qo‘yilgan talablardan kelib chiqib, 5620200 – Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari bo‘yicha), 5620100 – agroximiya-tuproqshunoslik va kasbiy ta‘lim – 5140900 mutaxassislik talabalari uchun mo‘ljallangan.

Mualliflar

1-mashg'ulot

XO'JALIK MABLAG'LARI VA SCHOTLAR REJASI

Talabaniing darsga tayyorgarligini aniqlash:

1. Hisob va uning turlari haqida tushuncha bering.
2. Buxgalteriya hisobi predmeti va metodi haqida ma'lumot bering.

Darsning maqsadi: talabalarda korxonalaridagi mablag'lar va jarayonlar haqida tushuncha hosil qilish. Ikki yoqlama yozuvning mohiyati va provodkalar tuzish ko'nikmasini hosil qilish. Talabalarga schotlar rejasi haqida ma'lumot berish.

Mashg'ulot rejasi:

1. Xo'jalik mablag'lari va jarayonlari bilan tanishish.
2. Ikki yoqlama yozuv va schotlar rejasi ma'lumotga ega bo'lish.
3. Mavzuga doir topshiriqlarni bajarish.

Adabiyotlar:

1. B. Qoshimov. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2004-yil, 6 – 59-betlar.
2. F. G'ulomova. Buxgalteriya hisobi bo'yicha amaliy qo'llanma. Toshkent, 1999-yil, 3 – 19-betlar.
3. I. Zavalishina. Yangicha buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2006-yil.
4. R. Radjapov, R. Do'smurotov. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi. Nukus, "Qaraqalpog'iston" 1994, 3 – 19-betlar.

Tayanch tushunchalar va iboralar: buxgalteriya hisobi – biznes tili deb ataladi, chunki har bir ishbi-larmon o'z ish faoliyatini samarali yuritish uchun buxgalteriya hisobi bo'yicha bilimga ega bo'lishi lozim.

Buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi foydalanuvchilarni boshqaruvga oid xo'jalik qarorlarini qabul qilishlari uchun zarur bo'lgan to'liq, ishonarli moliyaviy axborot va hisobot bilan o'z vaqtida ta'minlash hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobi obyektlari bo'lib korxonalar, tashkilot va muassasalarning barcha moliyaviy-xo'jalik faoliyati, asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromadlar va xarajatlar, foyda va zararlar hamda ularning siljishi bilan bog'liq barcha xo'jalik operatsiyalari hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobi obyektlarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: xo'jalik vositalari, ularning manbalari va xo'jalik jarayonlari.

Har bir korxonada xo'jalik vositalariga ega bo'ladi. Xo'jalik vositalariga korxonadagi mavjud bo'lgan jami mol-mulk kiradi. Mazkur mablag'lar aktivlar deb nomlanadi.

Aktivlar korxonaning mulkchiligida bo'lib, ma'lum qiymatga ega holda kelajakda iqtisodiy naf keltirish manbai hisoblanadi.

Korxonada aktivlari turlari bo'yicha ikki guruhga bo'linadi: uzoq muddatli va aylanma (joriy) aktivlar.

Uzoq muddatli aktivlarga korxonada uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan vositalar kiritiladi.

Aylanma mablag'lar bir ishlab chiqarish jarayonida xizmat qiladigan va o'z qiymatini mahsulot narxiga bir davrning o'zida o'tkazadigan aktivlar kiradi.

Aylanma mablag'larga xom ashyo va materiallar, yoqilg'i, tugallanmagan ishlab chiqarish va hokozolar kiradi.

Asosiy vositalarga ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt xizmat qiladigan, foydalanish jarayonida asta-sekin eskiradigan va o'z qiymatini mahsulot qiymatiga eskirish miqdorida qo'shib boradigan mehnat vositalari kiradi.

Asosiy vositalarga binolar, inshootlar, asbob-uskunalar, jihozlar, hisoblash texnikasi va hokozolar kiradi.

Nomoddiy aktivlar deb tabiiy-moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan, uzoq muddat ishlab chiqarishda yoki korxonani boshqarishda foydalaniladigan, shuningdek qo'shimcha daromad keltirish imkoniyatini yaratuvchi vositalarga aytiladi. Bularga tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari, patent, litsenziyalar, savdo belgisidan foydalanish huquqi va hokozolar kiradi.

Kapital qo'yilmalarga asosiy vositalar foydalanishga topshirilgunga qadar ularni sotib olish uchun korxonaning sarf-xarajatlari kiradi.

Moliyaviy qo'yilmalar deb uzoq muddatli yoki qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar: aksiya, obligatsiyalarni sotib olish uchun sarflangan qiymatlarga aytiladi.

Ishlab chiqarish zaxiralariga ishlab chiqarish yoki ish bajarish, xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan xom ashyo, materiallar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar, yoqilg'i, idish, ehtiyot qismlar, arzon baholi va tez eskiruvchi buyumlar zaxiralariga kiradi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish deb barcha ishlov bosqichlaridan. Ushbu korxonada joriy etilgan sinovlardan o'tmagan, butlanmagan hamda texnik nazorat yoki buyurmachi tomonidan qabul qilinmagan mahsulotga aytiladi.

Tayyor mahsulot deb korxonada barcha ishlov bosqichlaridan o'tgan, standartlar va texnik shartlar talabiga javob beradigan, texnik shartlar talabiga javob beradigan, texnik nazorat bo'limi tomonidan qabul qilingan va tayyor mahsulot omboriga topshirilgan mahsulotga aytiladi.

Pul mablag'lariga kassadagi naqd pul, talab qilinadigan depozitlar hamda hisob-kitob, valyuta yoki bankdagi boshqa hisobvaraqlardagi mablag'lar kiradi.

Debitorlik qarzlari deb ushbu korxonadagi qarzini to'lamagan, ya'ni qarzidor bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxslarning qarzigina aytiladi.

Korxonada o'z mablag'larini xususiy va qarzga olingan mablag'lardan shakllantiradi. Bular manbalar yoki passivlar deb ataladi.

Ustav kapitali deb davlat yoki ta'sischi tomonidan yangi tashkil etilayotgan korxonaga ajratilgan pul ifodasidagi dastlabki kapital miqdoriga aytiladi.

Foyda – korxonada xo'jalik faoliyatining ijobiy moliyaviy natijasi bo'lib, daromad xarajatlardan oshganda hosil bo'ladi.

Rezerv va fondlar korxonada foydasidan tashkil qilinib, ko'zda tutilmagan xarajatlar va budjarchiliklarni qoplash, zaxiralarni tashkil etish uchun sarflashga mo'ljallanadi.

Kelgusi davr daromadlariga joriy davrda korxonada tomonidan olingan, lekin kelgusida daromad qiymatini oshiradigan daromadlar kiradi.

Kreditorlik qarzigina ushbu korxonaning boshqa tashkilotlar va shaxslarga bo'lgan qarzlari kiradi.

Buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari xo'jalik vositalari va operatsiyalarini joriy hisobda guruhlash va operativ nazorat qilish usulidir.

Hisobvaraqlar xo'jalik vositalari, ularning manbalari va xo'jalik jayronlarini aks ettirish uchun alohida ochiladi.

Hisobvaraqlarning ro'yxati, ularning nomi va raqami davlat tomonidan tasdiqlangan hisobvaraqlar rejasida belgilanadi.

Buxgalteriya hisobida ikki yoqlama yozishning mohiyati shundaki, har bir xo'jalik operatsiyasi bir vaqtda va o'zaro aloqador holda bir xil summada bir hisobvaraqlarning debet tomonida va ikkinchi hisobvaraqlarning kredit tomonida aks ettiriladi.

Masalalarni yechish tartibi va mavzuga doir topshiriqlar

1-masala. Bankdagi hisob-kitob varag'idan korxonaga kassasiga 5000 so'm naqd pul olindi. Ushbu operatsiya natijasida kassadagi pul mablag'lar 5000 so'mga ko'payib, bir vaqtning o'zida shu summaga bankdagi hisob-kitob varag'idagi pul mablag'lari kamayadi. Demak, bu operatsiya ikkita hisobvaraqda aks ettiriladi: "Kassa" va "hisob-kitob varag'i". Bu hisobvaraqlar aktiv hisobvaraqlarga kiradi, chunki ularda pul mablag'lari hisobga olinadi.

Hisobvaraqlar sxemasida bu operatsiya quyidagicha ikki yoqlama yozishda aks ettiriladi:

5010 (A)

debet	kredit
5000 (+)	

5110 (A)

debet	kredit
	5000 (-)

2-masala. Ta'rischilarning umumiy majlisi qarori bilan taqsimlanmagan foydaning 10000 so'mi ustav kapitali (fondiga) qo'shildi. Ushbu operatsiya natijasida taqsimlanmagan foyda kamayib, ustav kapital ko'payadi. Ikkala hisobvaraqlar ham passiv hisobvaraqlarga kiradi.

8310 (P)

debet	kredit
	10000 (+)

8710 (P)

debet	kredit
10000 (-)	

3-masala. Asosiy ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilarga ish haqi hisoblandi – 40000 so'm. Ish haqi hisoblanganda korxonaga xarajatlari ko'payadi. Bunday xarajatlar "asosiy ishlab chiqarish" hisobvarag'ida hisobga olinadi. Bu hisobvaraqlar aktiv hisobvaraqlar, ko'payish debet tomo-

nida yoziladi. Ish haqi hisoblanib, hali to‘lanmagani uchun korxonaning ishchilari oldida ish haqi bo‘yicha qarzi ham ko‘payadi. Bu qarz ”mehnatga haq to‘lash bo‘yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar” hisob varag‘ida aks ettiriladi. Bu hisobvaraqlar passiv bo‘lgani uchun ko‘payish kredit tomonida ko‘rsatiladi.

Demak, hisobvaraqlarda quyidagi yozuvlarni qayd qilish kerak.

2010 (A)

debet	kredit
4000 (+)	

6710 (P)

debet	kredit
	4000 (+)

4-masala. Kassadan ishchilarga ish haqi to‘landi – 35000 so‘m. Bu operatsiya natijasida kassadagi naqd pullar kamayadi. Shu bilan birga, korxonaning ishchilar oldidagi ish haqi bo‘yicha qarzi ham kamayadi.

Hisobvarag‘larda bu quyidagicha yoziladi:

5010 (A)

debet	kredit
	35000 (-)

6710 (P)

debet	kredit
35000 (-)	

Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, xo‘jalik operatsiyalari hisobvaraqlarda ikki yoqlama yozuv usulida aks ettirilganda ma’lum hisobvaraqlar orasida o‘zaro bog‘langan mantiqiy aloqa paydo bo‘ladi. Bu aloqa hisobvaraqlar korrespondensiyasi yoki buxgalteriya provodkasi deb ataladi. Provodkalardagi yozuvlarda qaysi hisobvaraqlar debetiga va qaysi hisobvaraqlar kreditiga qanday summa yozilishi kerakligi ko‘rsatiladi.

Buxgalteriya provodkalari oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Oddiy buxgalteriya provodkasida ikki hisobvaraq qatnashib, uning biri debetlansa, ikkinchisi kreditlanadi. Murakkab buxgalteriya provodkalarida bir necha hisobvaraqlar qatnashib, qolganlari kreditlanadi, yoki teskarisi, biri kreditlansa, qolganlarining hammasi debetlanishi mumkin.

5-masala. Hisob-kitob varag'idan kassaga 1000 so'm, budgetga 5000 so'm, qisqa muddatli ssuda uchun 7000 so'm pul berilgan, jami 13000 so'm. Bu operatsiyada to'rtta hisobvaraq qatnashadi: "Hisob-kitob varag'i", "kassa", "budget bilan hisob-kitoblar", "bankning qisqa muddatli kreditlari". Pul doimo hisob-kitob varag'idan o'tkazilgani uchun bu hisobvaraqdagi pullar 13000 so'mga kamayadi. Shu bilan birga, kassadagi pullar 1000 so'mga ko'payadi, byudjetga korxonaning qarzi 5000 so'mga kamayadi, bank oldidagi qisqa muddatli ssuda bo'yicha qarzi 7000 so'mga kamayadi.

5010 (A)

debet	kredit
1000 (+)	

6410 (P)

debet	kredit
5000 (-)	

6810 (P)

debet	kredit
7000 (-)	

5110

debet	kredit
	13000 (-)

1.1. Topshiriqlar. “Nurli zamin” fermer xo‘jaligining mablag‘larini ko‘rsatilgan guruhlarga ajratimg

№	Xo‘jalik mablag‘lari	Aktiv	Passiv
1.	Fermer xo‘jaligi molxonasi		
2	MTPdan qarzi		
3	Ishchi mollar		
4	Soliqlar bo‘yicha qarzdorligi		
5	Kompyuter		
6	Ozuqa saqlanadigan inshootlar		
7	Lizingga olingan kombayn		
8	Ishchilardan ish haqi bo‘yicha qarzdorligi		
9	Bankdagi pul mablag‘lari		
10	Qisqa muddatli kreditlar		
11	Tokzorlar		
12	Qarzga olingan mineral o‘g‘it		
13	Boquvdagi mollar		
14	“Neksiya” avtomobili		
15	Suv ko‘tarish uskunalari		

1. 2. Topshiriq. Xo‘jalik mablag‘larini belgilangan guruhlarga ajratimg.

№	Xo‘jalik mablag‘lari	Aktiv	Passiv
1.	Yoqilg‘i moylash materiallari		
2	Traktor		
3	Neftbazadan qarzdorligi		
4	Qarzga olingan mineral o‘g‘itlar		
5	Olmazor		
6	O‘tgan yilgi foyda		
7	Mehnat vositalari		
8	Ta‘sischilar mablag‘i		
9	Ishchilardan mukofot puli bo‘yicha qarzdorligi		
10	Jo‘natilgan puli olinmagan tayyor mahsulotlar		

11	Lizingga olingan avtomobil		
12	Olingan subsidiyalar		
13	Tugallanmagan ishlab chiqarish		
14	Yosh buzoqlar		
15	Fermer xo'jaligining ustav kapitali		

1.3. Topshiriq. Xo'jalik mablag'larini belgilangan guruhlarga ajratib.

№	Xo'jalik mablag'lari	Aktiv	Passiv
1.	Sug'urta bo'yicha qarzlar		
2	Agroximservisdan qarzi		
3	Qarzga olingan printer		
4	Fermer xo'jaligi yordamchi sexdagi tikuv mashinalari		
5	Beda pichani		
6	O'stiruvdagi yosh mollar		
7	Byudjetdan qarzdorligi		
8	Olingan grantlar		
9	Ijaraga olingan traktor		
10	yetishtirilgan bug'doy		
11	Urug'liklar		
12	Mol yetkazib beruvchilardan olingan materiallar bo'yicha qarzi		
13	Jo'natilgan tovarlar		
14	Lizingga olingan bino		
15	Mineral o'g'itlar		

1.4. Topshiriq. Quyidagi operatsiyalarga provodka tuzing.

1. Mahsulot yetkazib beruvchilardan materiallar olindi. Hisob-kitob qilangani yo'q. 30000 s.

2. Mahsulot ishlab chiqarish uchun materiallar sarflandi. 65000 s.

3. Asosiy ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilarga ish haqi hisoblandi. 200000 s.

4. Buyurtmachilardan bajarilgan ishlar akti qabul qilindi. 2300000 so'm.

5. Xaridorlardan bajarilgan ishlar puli kelib tushdi 2300000 s.

6. Mol yetkazib beruvchilardan mineral o'g'it qabul qilindi. Hisob-kitob qilingani yo'q. 232000 so'm.

7. Ishlab chiqarishdan omborga tayyor mahsulot qabul qilindi. 550000 so'm.

8. Ish haqidan daromad solig'i ushlendi (20000 so'm).

9. Hisob-kitob varagidan:

a) budjetga pul o'tkazildi (320000 so'm).

B) mol yetkazib beruvchilarga (600000 so'm).

10. Kassadan ish haqi berildi (120000 so'm).

1.5. Topshiriq. Provodka bering.

1. Mahsulot ishlab chiqarish uchun materiallar sarflandi (260000 so'm).

2. Hisob-kitob varag'iga bankdan qisqa muddatli kredit olindi (3000000 so'm).

3. Kassadan mukofot puli berildi (60000 so'm).

4. Ish haqidan daromad solig'i ushlab qolindi.

5. Hisob-kitob varag'idan:

A) olingan mineral o'g'itlar puli berildi (230000);

B) Qisqa muddatli kredit qaytarildi (3000000 so'm).

6. Hisob-kitob varag'idan kassaga pul olindi (60000 so'm).

7. Mol yetkazib beruvchilardan urug'lik olindi. Hisob-kitob qilingani yo'q (230000).

8. Korxonaga asosiy vositalar qabul qilindi. Puli to'langani yo'q (1200000 so'm).

9. Yordamchi ishlab chiqarishdagi ishchilarga ish haqi hisoblandi (160000 s).

10. Mmahsulotlar naqd pulga sotilgandi (2300000 so'm).

2-mashg'ulot BALANS VA UNING TURLARI

Talabalarning darsga tayyorgarligini aniqlash:

1. Balans haqida umumiy tushuncha bering.
2. Buxgalteriyada hujjatlashtirishning ahamiyati haqida ma'lumot bering.

Darsning maqsadi: talabalarda buxgalteriya balansiga ta'sir qiluvchi xo'jalik operatsiyalari haqida ko'nikma hosil qilish. Balans tuzishni amaliy topshiriqlar orqali o'rganib olish.

Mashg'ulot rejasi:

1. Buxgalteriya balansi, uning tuzilishi va mazmuni bilan tanishish.
2. Xo'jalik mablag'larining balansga ta'sirini mashqlar orqali amalga oshirish.
3. Amaliy mashqlar orqali balans tuzishni o'rganish.
4. Mavzuga doir topshiriqlarni bajarish.

Adabiyotlar:

1. B. Qoshimov. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2004-yil, 62 – 79-betlar.
2. F. G'ulomova. Buxgalteriya hisobi bo'yicha amaliy qo'llanma. Toshkent, 1999-yil, 11 – 19-betlar.
3. R. Radjapov, R. Do'smurotov. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi. Nukus, "Qaraqalpog'iston" 1994, 19 – 25-betlar.

Tayanch tushunchalar va iboralar: **Balans (balance)** fransuz tilidan tarjima qilinganda "muvozanat" degan ma'noni bildiradi. Bunda korxonaning moliyaviy resurslarini hosil qilish manbalari (balans passivi) ularni joylashtirish manbalariga (balans aktiviga) teng bo'ladi.

Buxgalteriya balansi korxonaning xo'jalik vositalari va ularning manbalarini umumlashtirish hamda guruhlashtirish usuli, shuningdek, muayyan vaqt davri uchun xo'jalik operatsiyalarini muayyan sanada aks ettirish natijalaridir.

Tuzilishiga ko'ra, buxgalteriya balansi ikki tomonli jadvalni tashkil etadi, uning chap tomoni xo'jalik vositalarining tarkibi va joylashtirilishini aks ettiruvchi aktiv, o'ng tomoni – vositalarni hosil etish manbalari va ularning maqsadli ahamiyatini aks ettiruvchi passivdir.

Balans aktivlari korxonada tasarrufida bo'lgan, foydalanishi kelajakda foyda keltirishi ehtimoli bo'lgan iqtisodiy resurslardir.

Korxonada balansning aktivi ikki bo'limdan iborat:

1. Uzoq muddatli aktivlar.
2. Joriy aktivlar.

Balans passivi – korxonada mablag'larni hosil etish manbalari, ular o'z vositalarining manbalari va majburiyatlardan iborat bo'ladi.

Balans passivi ikki bo'limdan iborat:

1. O'z vositalari manbalari (xususiy kapital).
2. Majburiyatlar.

Buxgalteriya balans turlari.

Buxgalteriya balanslarining bir necha turi mavjud, ya'ni:

- saldoli;
- oborotli;
- kirish;
- yakunlovchi;
- tugatish balanslari.

Masalalarni yechish tartibi va mavzuga doir topshiriqlar:

Masala. "Nurli Zamin" fermer xo'jaligining dastlabki balansi berilgan.

Aktiv	Summa	Passiv	Summa
Asosiy vositalar	1312600	Ustav kapitali	1448960
Xomashyo va materiallar	24200	Xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar	39890
O'simlikchilik	43850		
Hisob-kitob schyoti	134400	Mol yetkazib beruvchilar bilan hisob kitoblar	26200
Jami	1515050	Jami	1515050

Quyidagi operatsiyalarni balansga joylashtiring.

1-muomala. Qiymati 7825 so'mlik urug'lik chigit ombordan berildi va ekishga sarflandi. Bu muomala natijasida ombordagi urug'lik chigit 7825 so'mga kamaydi, shu vaqtning o'zida o'simlikchilik xarajatlari 7825 so'mga ko'paydi. Bu muomaladan so'ng balansning jami summasi

o'zgaradi, faqat balans aktividagi moddalar ichida o'zgarish sodir bo'ldi.

2-muomala. Ishchi va xizmatchilarga hisoblangan ish haqi summasidan 1500 so'm daromad solig'i ushlendi va budjetga o'tkazildi. Bu muomaladan so'ng hisoblangan ish haqi summasi (39890-1500) 38390 so'm bo'lgan. Bir vaqtning o'zida, balans passivida 1500 so'mga "Budjet bilan hisob-kitoblar" degan yangi modda paydo bo'ladi. Shunday qilib, bu muomala natijasida faqat balans passividagi moddalar ichida o'zgarishlar ro'y bergan va yig'indisi o'zgaragan.

3-muomala. Yuqori tashkilot buyrug'iga muvofiq, 39800 so'mlik asosiy vositalar bepul qabul qilindi. Bu muomala natijasida balans aktivida ham, passivida ham o'zgarish (ko'payish) sodir bo'lgan. Birinchidan, aktivdagi "Asosiy vositalar" moddasi 39800 so'mga ko'paydi, ikkinchidan, passivda "Maxsus maqsadlarga mo'ljallangan fondlar" degan yangi modda paydo bo'ldi.

4-muomala. Mol yetkazib beruvchilarga hisoblashuv schyotidan 16900 so'm qarz puli o'tkazildi. Bu muomala natijasida hisoblashuv schotidagi qoldiq 16900 so'mga kamaydi va bir vaqtning o'zida mol yetkazib beruvchilardan bo'lgan qarzi ham shu summaga kamaydi. Bu muomala balansning aktivida ham, passivida ham bir xil summaga kamayishga olib keldi.

Masalani yechish tartibi:

Yakuniy balans

Aktiv	Summa	Passiv	Summa
Asosiy vositalar (+39800)	1352400	Ustav kapitali	1448960
Xomashyo va materiallar (-7825)	16375	Xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar (-1500)	38390
O'simlikchilik (+7825)	51675	Budjet bilan hisoblashuvlar (+1500)	1500
Hisob-kitob schyoti (-16900)	117500	Mol yetkazib beruvchilar bilan hisob kitoblar (-16900)	9300

		Maxsus maqsadlarga mo'ljallangan fondlar (+39800)	39800
Jami	1537950	Jami	1537950

Masala. "Farhod" fermer xo'jaligi 01.01. 2007-yildagi balansi berilgan.

(raqamlar shartli)

5-jadval

Hisob varaq-lar	Aktiv	Summa	Hisob varaq-lar	Passiv	Summa
0100	Asosiy vositalar	680100	6000	Mahsulot yetkazib beruvchi va pudrat-chilar bilan hisob-kitoblar	13000
1000	Materiallar	52000	6400	Budjet bilan hisob-kitoblar	2200
2000	Asosiy ishlab chiqarish	9200	6710	Mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar	10000
2800	Tayyor mahsulot	10800	8710	Foyda	60000
5000	Kassa	100	8510	Ustav kapitali	701000
5100	Hisob-kitob	38000	6810	Qisqa muddatli bank kreditlari	4000
	Balans	790200		Balans	790200

Mart oyida "Farhod" fermer xo'jaligida yuz bergan operatsiyalarga berilgan provodkalar

№	Operatsiya mazmuni	Summa, sum	Provodka	
			debet	kredit
1	Mahsulot yetkazib beruvchilardan materiallar olindi. hisob-kitob qilindi yo'q.	30000	1010(+)	6010(+)
2	Mahsulot ishlab chiqarish uchun materiallar sarflandi.	58000	2010(+)	1010(-)
3	Asosiy ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilarga ish haqi hisoblandi.	20000	2010(+)	6710(+)
4	Ish haqidan daromad solig'i ushlab qolindi.	5000	6710(-)	6410(+)
5	Hisob-kitob varag'idan kassaga pul olindi.	17000	5010(+)	5110(-)
6	Kassadan ish haqi berildi.	17000	6710(-)	5010(-)
7	Hisob-kitob varag'iga bankdan qisqa muddatli kredit olindi.	21000	5110(+)	6810(+)
8	Ishlab chiqarishdan omborga tayyor mahsulot qabul qilindi.	80200	2810(+)	2010(-)
9	Hisob-kitob varag'idan pul o'tkazildi:			
	A) budjetga	6900	6410(-)	
	B) bankka ssuda uchun	4000	6810(-)	
	V) mahsulot yetkazib beruvchiga	25000	6010(-)	
	Jami	35900		5110(-)

**Yuqoridagilardan foydalanib, jamlama hisobvaraqlar bo'yicha
oborot qaydnomasi tuzish tartibi**

Hisob varaqlar nomi	Boshlanq'ich saldo		Oborot		Yakuniy saldo	
	debet	kredit	debet	kredit	debet	kredit
Asosiy vosi- talar	680100	-	-	-	68010 0	
Materiallar	52000	-	30000	58000	24000	-
Asosiy ish- lab chiqarish	9200	-	78000	80200	7000	
Tayyor mahsulot	10800		80200		91000	
Kassa	100		17000	17000	100	
Hisob-kitob varag'i	30800		21000	52900	6100	
Mahsulot yetkazib be- ruvchi va pudratchilar bilan hisob- kitoblar		13000	25000	30000		18000
Budjet bilan hisob-kitob- lar		2200	6900	5000		300
Mehnatga haq to'lash bo'yicha xo- dimlar bilan hisob-kitob- lar		10000	22000	20000		8000
Foyda		60000				60000
Ustav kapi- tali		701000				701000

Bankning qisqa mud-datli ssudalari		4000	4000	21000		21000
Jami:	790200	790200	284100	284100	808300	08300

2.1. Topshiriq. Fermer xo'jaligi quyidagi mablag'larga ega. Ushbu mablag'lardan balans tuzing.

Ming so'm hisobida

Xo'jalik mablag'larining nomi	Summa
Dala shiypon binosi	2100
Traktor	3800
Kultivatsiya	400
Korbomid	158
Beda pichani	422
Yosh buzoqlar	2020
Kuzgi bug'doy uchun tugallanmagan sarflar	2000
Tuman MTPdan fermer xo'jaligi qarzi	400
Elektr tarmoqlari korxonasiidan qarzi	1100
Qishloqkimyodan qarz	700
Neftibazadan qarz	800
Bankdan olgan kredit	5000
Fermer xo'jaligining xususiy kapitali	5100
Bankda saqlangan pul mablag'lari	2200
Jami	26200

2. 2-5. Topshiriq Operatsiyalarni quyidagi balansga joylashtirib oxirgi balansni tuzing.

Dastlabki balans

Aktiv mablag'lar	Summa	Passiv mablag'lar	Summa
Asosiy vositalar	1480000	Ustav kapitali	1582610
Materiallar	2820	Foyda	74800
Asosiy ishlab chiqarish	164400	Xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisob-	118900

		kitoblar	
Kassa	20	Mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar	6600
Hisoblashuv schyoti	186700	Kreditor qarzlari	151370
Debitor qarzlari	100340		
Jami	1934280	Jami	1934280

2. 2. Topshiriq. Operatsiyalarni balansga joylashtiring.

1. Ishchi va xizmatchilariga hisoblangan ish haqi summasidan 10500 so‘m daromad solig‘i ushlendi.

2. Qiymati 24300 so‘mlik urug‘lik chigit ombordan berildi va ekishga sarflandi.

3. 18000000 so‘mlik asosiy vositalar bepul qabul qilindi.

4. Mol yetkazib beruvchilarga hisoblashuv schyotidan 1600000 so‘m qarzi to‘landi.

2. 3. Topshiriq. Operatsiyalarni balansga joylashtiring.

1. Yoqilg‘i moylash materiallari naqd pulga sotib olindi (400000 so‘m).

2. Ishchilarga 650000 so‘m ish haqi hisoblandi.

3. 40000 so‘m soliqlar budjetga o‘tkazildi.

4. Ta‘sischilar tomonidan 1200000 so‘m asosiy vositalar kiritildi.

2. 4. Topshiriq. Operatsiyalarni balansga joylashtiring.

1. Hisoblashuv schyotiga bankdan 3200000 so‘m qisqa muddatli kredit olindi.

2. Ishlab chiqarishdan omborga 450000 so‘mlik tayyor mahsulot qabul qilindi.

3. Kassadan 780000 so‘m ish haqi berildi.

4. Bankdan 100000 so‘m pul olindi.

2.5. Topshiriq. Operatsiyalarni balansga joylashtiring.

1. Ombordan paxtaga 123000 so‘mlik mineral o‘g‘it sarflandi.

2. Mol yetkazib beruvchilardan 2000000 so‘mga sigir qarzga olindi.

3. Olingan sigirning puli to‘landi (2000000 so‘m).

4. Xaridorlardan hisoblashuv schyotiga 4000000 so‘m pul kelib tushdi.

2. 6. Topshiriq. 2. 2-5 topshiriqlaridan foydalanib oborot vedemostini tuzing.

	Mablag'lar nomlanishi	Boshlang'ich qoldiq		Oborot		Oxirgi qoldiq	
		debet	kredit	debet	kredit	debet	kredit

3-mashg'ulot.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni hisobga olish.

Talabalarning darsga tayyorgarligini aniqlash.

1. Asosiy vositalar haqida tushuncha bering.
2. Asosiy vositalar turlarini ayting.

Darsning maqsadi: talabalarga asosiy vositalarni hisobga olish bo'yicha to'liq ma'lumot berish. Asosiy vositalarni kirimi va chiqimini hisobga olishni mashqlar orqali amaliyotda qo'llash ko'nikmasini hosil qilish.

Mashg'ulotning rejasi:

1. Asosiy vositalar va ularni baholash tartibi.
2. Asosiy vositalarning kelib tushishi va hisobdan chiqarishni hisobga olish.
3. Asosiy vositalarning eskirishini hisobi.
4. Nomoddiy aktivlar hisobi.
5. Mavzuga oid topshiriqlar.

Adabiyotlar:

1. F. G'ulomova. Buxgalteriya hisobi bo'yicha amaliy qo'llanma. Toshkent, 1999-yil, 59 – 87-betlar.
2. I. Zavalishina. Yangicha buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2006-yil.
3. R. Radjapov, R. Do'smurotov. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi. Nukus, "Qoraqalpog'iston", 1994, 177 – 200-betlar.
4. F. G'ulomova. Yangicha hisobvaraqlar rejasi bo'yicha 3000 ta buxgalteriya o'tkazmalari. Toshkent, 2007-yil, 18 – 45-betlar.

Tayanch tushunchalar va iboralar: asosiy vositalar sirasiga binolar, inshootlar, uzatish moslamalari, ishchi va kuch mashinalar va uskunalari, o'lash va sozlash asboblari va moslamalari, hisoblash texnikasi, transport vositalari, asbob-uskuna, ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari va anjomlari, ishchi va mahsuldor mollar, ko'p yillik o'simliklar va boshqa asosiy vositalar kiradi.

Yer uchastkalari asosiy vositalar tarkibiga, agar subyektda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan yerga bo'lgan mulk huquqi mavjud bo'lgan hollardagina kiritiladi. Qolgan barcha huquqlar – yerdan foydalanish, unga egalik qilish huquqi – nomoddiy aktivlar tarkibida aks ettiriladi.

Asosiy vositalar 0110–0190 hisobvaraqlarda hisobga olinadi. Shuningdek, 0310 – uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar.

Kapital qo'yilmalar – korxonalarda asosiy vositalar tarkibida hisobga olinadigan yangi mol-mulk paydo bo'lishining bosh manbai. Kapital qo'yilmalar yangi qurilish, asosiy vositalarning yangi obyektlarining sotib olish bilan bog'liq uzoq muddatli investitsiyalarni amalga oshirish xarajatlarining majmuidan iborat.

Asosiy vositalarning chiqib ketishi quyidagi sabablarga ko'ra yuz berishi mumkin:

- tugatish;
- realizatsiya qilish (sotish);
- chet korxonalariga va shaxslarga tekinga berilishi;
- ustav kapitaliga ulush sifatida berilishi;
- moliyaviy lizing shartnomasi bo'yicha berilishi;
- kamomad yoki yo'qotishning aniqlanishi.

Asosiy vositalarning qiymatini amortizatsiyani hisoblab yozish yo'li bilan hisobdan chiqarishning turli xil usullari mavjud bo'lib, ulardan asosiylari quyidagilardir:

- 1) qiymatni bir maromda (to'g'ri chiziqli) hisobdan chiqarish usuli;
- 2) eskirishni bajarilgan ishlar (ishlab chiqarish) hajmiga mutanosib ravishda hisoblab yozish usuli;
- 3) tezlashtirilgan hisobdan chiqarishning ikki usuli;
- 4) qiymatning yillar yig'indisi bo'yicha hisobdan chiqarish usuli (sonlar summasi usuli), yoki kumulyativ usul;
- 5) kamayib boruvchi qoldiq usuli.

7-son BXMSga binoan, nomoddiy aktivlar – xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan nazorat qilinadigan va uzoq vaqt (bir yildan ortiq) foydalanish uchun mo‘ljallangan, moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo‘lmagan mol-mulk obyektlaridir.

Nomoddiy aktivlarning qiymati uzoq muddatli huquqlarda va ularning o‘z egalariga beradigan afzalliklaridan iboratdir. Nomoddiy aktivlarga oddiy misollari bo‘lib (ularni yana ushlab bo‘lmaydigan huquqlar ham deb ataydilar), patentlar, mualliflik huquqlari, savdo markalari, litsenziyalar, nou-xau, firma bahosi (gudvill) hisoblanadi.

Masalalarni yechish tartibi va mashg‘ulotga doir topshiriqlar

Masala. Boshlang‘ich qiymati 120 ming so‘m, eskirishi – 30 ming so‘m, shartnoma bahosi – 200 ming so‘m bo‘lgan dastgoh sotildi.

Yechish. To‘liq amortizatsiya qilinmagan A\Vlarning sotilishidan ko‘rilgan foyda (zarar) sotilayotgan A\Vlarning boshlang‘ich (tiklanish) qiymati, QQS (faqat QQS to‘lovchilar uchun) va xarajatlar hamda sotishdan tushgan tushum asosida tuzatilgan, hisoblangan eskirish o‘rtasidagi farq sifatida belgilanadi.

QQS summasi A\Vlarning shartnoma va qoldiq qiymatlari o‘rtasidagi farq asosida aniqlanadi. Soliqqa tortiladigan aylana hajmi $200 - 90 = 110$ ming so‘mni tashkil qiladi.

$$QQS = 110 \times 20\% : 120\% = 18,3 \text{ ming so‘m}$$

Yozuvlar mazmuni	D-t	K-t	Summasi
A\Vlarning sotilishi	4010	9210	200
Boshlang‘ich qiymat hisobdan chiqarilgan	9210	0130	120
Hisoblangan eskirish hisobdan chiqarilgan	0230	9210	30
QQS hisoblangan	9210	6410	18,3
Moliyaviy natija aniqlangan	9210	9310	91,7

Asosiy vositalarga eskirish hisoblash tartibi

Qiymatni bir maromda (to‘g‘ri chiziqli) hisobdan chiqarish usuli.

Masala. Yuk avtomobilining boshlang‘ich qiymati 100 000 so‘m, uning besh yillik foydalanish muddati oxiridagi tugatish qiymati – 100 000 so‘m. Ushbu holatda har yilgi amortizatsiya amortizatsiyalangan qiymatning 20 % ni yoki to‘g‘ri chiziqli hisobdan chiqarish usuli.

liga muvofiq 180 000 so'mni tashkil qiladi. Ushbu hisob-kitoblar quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

(Boshlang'ich qiymat-tugatish qiymati)/xizmat ko'rsatish muddati
(1 000 000 – 1 00 000): 5 = 180 000 so'm.

Besh yil mobaynidagi amortizatsiyaning hisoblab yozilishini quyidagi tarzda aks ettirish mumkin:

6-jadval

Sotib olish sanasi	Boshlang'ich qiymati	Yillik amortizatsiya summasi	To'plangan eskirish	Qoldiq qiymati
	1000000	-	-	1000000
1-yil oxiri	1000000	180000	180000	820000
2-yil oxiri	1000000	180000	360000	640000
3-yil oxiri	1000000	180000	540000	460000
4- yil oxiri	1000000	180000	720000	280000
5-yil oxiri	1000000	180000	900000	100000

Eskirishni bajarilgan ishlar (ishlab chiqarish) hajmiga mutanosib ravishda hisoblab yozish usuli.

Masala. Biz yuqorida so'z yuritgan yuk mashinasi muayyan miqdordagi operatsiyalarni bajarishi mumkin, uning yo'l bosishi esa 90 000 kmga mo'ljallangan. 1 kmga bo'lgan amortizatsiya xarajatlari quyidagi tarzda aniqlanadi:

(Boshlang'ich qiymat – tugatish qiymati) G' taxmin qilinayotgan ish birliklari soni (1 000 000 so'm – 10 000 so'm):90 000 km=10 so'm/km.

Agar birinchi yildagi foydalanilishi chog'ida yuk mashinasi 20 000 km yo'l yurgan, ikkinchi yilda – 30 000, uchinchi yilda – 10 000, to'rtinchi yilda – 20 000 va beshinchida – 10 000 km yo'l bosgan bo'lsa, u holda amortizatsiya ajratmalari jadvali quyidagiga ko'rinishga ega bo'ladi:

4-jadval

Sotib olish sanasi	Boshlang'ich qiymati	Yillik amortizatsiya summasi	To'plangan eskirish	Qoldiq qiymati
	1000000	-	-	1000000
1-yil oxiri	1000000	200000	200000	800000

2-yil oxiri	1000000	300000	500000	500000
3-yil oxiri	1000000	100000	600000	400000
4- yil oxiri	1000000	200000	800000	200000
5-yil oxiri	1000000	100000	900000	100000

3. 12. Topshiriq. Korxonaga yangi ishlab chiqarish faoliyati uchun binoni sotib oldi. U 2000 ming so‘mdan iborat xarid qilish qiymatini to‘laydi, 20 ming so‘m broker xizmatlari va 15 ming so‘m yurist xizmatlari haqini to‘laydi. Hujjatlarni rasmiylashtirish uchun 25 ming so‘m to‘laydi. Operatsiyalarga provodka bering.

A)

B)

3. 13. Topshiriq. Korxonaga 400 ming dollarga uskunalar sotib oldi. Ushbu uskunani olish vaqtida 1 dollar kursi 950 so‘mga teng bo‘lganligini hisobga olganda uning qiymati 380000 ming so‘m etib baholandi. Biroq to‘lov amalga oshirilgan vaqtda kurs 1 dollar 983 so‘mni tashkil qildi. Bu operatsiyalar buxgalteriyada qanday aks ettiriladi.

A) ko‘rilgan zarar;

B) asosiy vositalar olinishi;

V) ularning foydalanishga kiritilishi;

G) yetkazib beruvchiga to‘lanishi.

3. 14. Topshiriq. Yetkazib beruvchilardan mamlakatimizda ishlab chiqarilgan uskuna 6800 ming so‘mga o‘rnatish uchun olindi. O‘rnatiladigan uskunalar qiymati 570 ming so‘mdan iborat bo‘lgan korxonaning o‘zida ishlab chiqarilgan ehtiyot qismlari kiritilgan. Bu operatsiyalarga provodka bering.

A)

B)

V)

3. 15. Topshiriq. 1230000 so‘mlik yosh hayvonlarni asosiy podaga o‘tkazildi. Provodka tuzing.

3. 16. Topshiriq. Muassislardan ularning korxonaga ustavi kapitaliga ulushlari evaziga 3210000 so‘mlik asosiy vositalar olindi.

3. 17. Topshiriq. Fermer xo‘jaligiga 8000 ming so‘mlik avtomobil tekinga berildi.

3. 18. Topshiriq. Korxonaga boshqa korxonaning ustav fondiga o‘z ulushi sifatida boshlang‘ich qiymati 350 ming so‘m, hisoblangan eskiri-

shi 140 ming soʻmni tashkil qilgan kompterni 500 ming soʻmlik shartnomaviy bahosi boʻyicha kiritadi. Ushbu operatsiyalarga provodka bering:

A) Boshlangʻich qiymatning hisobdan chiqarilishi

B) Eskirishni hisobdan chiqarish

V) Shartnomaviy bozor bahosi boʻyicha uzoqmuddatli investitsiyalar:

lar:

G) QQSning 290000:120%X20%q 48333 soʻmga

D) Shartnoma qiymatining balans qiymatidan ortiq summalarining aks ettirilishi

3. 19–21. Topshiriq. Yuk avtomobilining boshlangʻich qiymati 50 000 ming soʻm, foydalanish muddati 5 yil. Uning yoʻl bosishi 90000 km ga moʻljallangan.

3. 19. Topshiriq. Asosiy vositaga eskirishni bir maromli usulda hisoblang.

3. 20. Topshiriq. Asosiy vositaga eskirishni bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda hisoblab yozish usulidan foydalanib toping.

3. 21. Topshiriq. Asosiy vositaga eskirishni kamayib boruvchi qoldiq usulidan foydalanib hisoblang.

Mustaqil topshiriqlar:

1. Fermer xoʻjaliklarida lizingni hisobga olishni oʻrganing.

2. Asosiy vositalarga eskirish hisoblashning turlarini oʻrganing.

3. Fermer xoʻjaliklari faoliyatida foydalanadigan nomoddiy aktivlar haqida maʼlumot toʻplang.

4-mashg'ulot

PUL MABLAG'LARINING HISOBI

Talabalarning darsga tayyorgarligini aniqlash:

1. Korxonadagi pul mablag'lari haqida tushuncha bering.
2. Pul mablag'larini o'zida aks ettiruvchi hujjatlar haqida gapirib bering.

Darsning maqsadi: talabalarda korxonadagi pul mablag'larini hisobga olish to'g'risida to'liq tushuncha hosil qilish. Ularni amaliyotda hujjatlarda aks ettirish bo'yicha ko'nikma hosil qilish.

Mashg'ulotning rejasi:

1. Kassa operatsiyalari hisobini yuritish tartibini o'rganish.
2. Hisob-kitob varag'i bo'yicha operatsiyalar hisobi bilan tani-shish.
3. Bank kreditlari hisobini o'rganish.
4. Pul mablag'larini hisobga oluvchi hujjatlar bilan tanishish.
5. Mavzuga doir topshiriqlarni bajarish.

Adabiyotlar:

1. F. G'ulomova. Buxgalteriya hisobi bo'yicha amaliy qo'llanma. Toshkent, 1999-yil, 38 – 57-betlar.
2. I. Zavalishina. Yangicha buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2006-yil.
3. R. Radjapov, R. Do'smurotov. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi. Nukus, "Qaraqalpog'iston", 1994; 1997-yil.
4. F. G'ulomova. Yangicha hisobvaraqlar rejasi bo'yicha 3000 ta buxgalteriya o'tkazmalari. Toshkent, 2007-yil.

Tayanch tushunchalar va iboralar: kassada naqd pullarni saqlash, sarflash va hisobga olish tartibi kassa operatsiyalarini yuritish qoidalariga asosan amalga oshiriladi.

Kassadagi naqd pullar xodimlarga ish haqi, mukofot, nafaqa, xizmat safari xarajatlarini to'lash uchun va boshqa maqsadlarda sarflanadi. Kassadagi naqd pullarning sarflanishi kassa chiqim orderi bilan rasmiylashtiriladi. Kassa chiqim orderini kassir, bosh buxgalter va korxonahabari imzolaydi. Kassa kirim va chiqim orderlari kassaga berilishidan avval maxsus jurnalda ro'yxatga olinadi.

Kassadagi naqd pullar xodimlarga ish haqi, mukofot, nafaqa, xizmat safari xarajatlarini to'lash uchun va boshqa maqsadlarda sarflanadi.

Kassadagi naqd pullarning sarflanishi kassa chiqim orderi bilan rasmiylashtiriladi.

Kassa chiqim orderini kassir, bosh buxgalter va korxonra rahbari imzolaydi.

Kassa kirim va chiqim orderlari kassaga berilishidan avval maxsus jurnalda ro'yxatga olinadi.

Hisob-kitob varag'idagi operatsiyalar bank tomonidan, asosan, naqd pulsiz tartibda amalga oshiriladi. Ayrim hollarda korxonra, ya'ni uning egasi ruxsati bilan hisob-kitob varag'idagi pul korxonra ruxsatisiz sarflanishi mumkin: masalan, xo'jalik sudi farmoyishlari asosida budjetga o'z vaqtida to'lanmagan soliqlarni, bank kreditlaridan foydalanilganligi uchun to'lovlar, jarima va hokazolar.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar bank orqali to'lov talabnomasi, to'lov topshirig'i, chek, akkreditiv va veksellar bilan amalga oshiriladi. Qo'llaniladigan hisob-kitoblar shakllari avvaldan shartnomalarda kelishib olinidi.

To'lov topshirig'i bilan hisob-kitoblar oldindan to'lov shakli deb ham ataladi. Bunda xaridor shartnoma asosida to'lov topshiriqini yozib, uni o'z bankiga topshiradi. Mol yetkazib beruvchi korxonra pul hisob-kitob varag'iga tushgandan so'ng tovarni xaridorga jo'natadi.

5110 "Hisob-kitob hisobvaraqi"ning debetida korxonaning hisob-kitob hisobvarag'iga pul mablag'larining kelib tushishi aks ettiriladi. 5110 "Hisob-kitob hisobvaraqi"ning kreditida korxonaning hisob-kitob hisobvarag'idan pul mablag'larining hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi.

Masalalarni yechish tartibi va mashg'ulotga doir topshiriqlar

Masala. "Nurli zamin" fermer xo'jaligi o'ziga xizmat qilayotgan AT "Paxtabank"dan qisqa muddatli kredit oldi.

Masala. "Nurli zamin" fermer xo'jaligi o'ziga xizmat qilayotgan AT "Paxtabank" dan qisqa muddatli krediti evaziga tovar moddiy xazinalar oldi

T/r	Yozuvlar mazmuni	D-t	K-t	Yozuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
1	Qisqa muddatli bank kreditlarini olinishi	5110-5530	6810-6820	Kredit shartnomasi, to'lov topshiriqnomasi,

				hisob-kitob hisobvarag'idan ko'chirma
2	TMZ larni qisqa muddatli bank krediti evaziga olinishi	1010–2910	6810	Hisobvaraqa-faktura, tovar-transport yuk xati

Topshiriqlarni bajarish uchun guruh 4 ta kichik jamolarga bo'linishi zarur!

4.22. Topshiriq. Provodka tuzing.

1. Hisobdor shaxslar tomonidan ilgari olingan ishlatilmagan bo'naklar qaytarilishi.

2. Ta'sischilar tomonidan korxonada ustav kapitalidagi ulushi hisobiga naqd pul mablag'lari kiritilishi.

3. Lizing shartnomasiga muvofiq moliyaviy lizing bo'yicha qarzlarni qoplash hisobiga ijarachilardan kassaga pul mablag'lari kelib tushishi.

4. Xizmat safari bo'yicha bo'naklar berish uchun bankdagi valyuta hisob-kitob hisobvarag'idan pul mablag'lari kelib tushishi.

5. Yo'lda deb hisoblangan pul mablag'lari kelib tushishi.

6. Asosiy vositalar va boshqa aktivlar sotilganligidan hisob-kitob hisobvarag'iga tushum kelib tushishi.

7. Mol yetkazib beruvchilarga ilgari berilgan bo'nakning qaytarilishi.

8. Tovarlar kreditga sotilganligidan pul mablag'lari kelib tushishini aks ettirish.

4.23. Topshiriq. Provodka tuzing.

1. Qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar sotilishi.

2. Bankning uzoq muddatli ssudasi olinishi.

3. Tekinga moliyaviy yordam kelib tushishi.

4. Qisqa muddatli kredit hisobiga asosiy vositalarni o'rnatish va sozlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish.

5. Qisqa muddatli kredit hisobiga olingan tovarlarni kirim qilish.

6. Bankning qisqa muddatli kreditlarini hisob-kitob varag'iga olish.

7. Uzoq muddatli kredit hisobiga olingan hayvonlarni kirim qilish.

8. Uzoq muddatli kredit hisobiga olingan materiallarni kirim qilish.

4.24. Topshiriq. Provodka tuzing.

1. Uzoq muddatli kreditning joriy qismga o'tkazilishini amalga oshirish.

2. Boshqa korxonalaridan berilgan uzoq muddatli kredit hisobiga olingan hayvonlarni kirim qilish.

3. Bajarilgan ishlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar oldidagi qarzni qoplash.

4. Byudjetga ajratmalar va to'lovlar bo'yicha qarz summalarini o'tkazish;

5. Davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalar bo'yicha qarzni qoplash.

6. Mehnat haqini plastik varaqchasiga o'tkazish.

7. Tekinga moliyaviy yordam hisob-kitob hisobvarag'idan o'tkazilishi;

8. Bank xizmatlari uchun hisob-kitob hisobvarag'idan o'tkazilishi.

4.25. Topshiriq. Provodka tuzing.

1. Ustav kapitaliga naqd pul kiritilganligini aks ettirish.

2. Tayyor mahsulot sotilganligi uchun naqd pul tushumi kelib tushishi.

3. Ko'rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar uchun naqd pul tushumi kassaga kelib tushishi.

4. Inventarlash paytida aniqlangan ortiqcha pul mablag'larini kirim qilish.

5. Mol yetkazib beruvchilarga bo'nakni naqd pul bilan to'lash.

6. Bankning qisqa muddatli krediti naqd pul bilan qoplanishi.

7. Bankdan uzoq muddatli kreditlarini hisob-kitob varag'iga olish.

8. Tekinga moliyaviy yordam hisob-kitob hisobvarag'idan o'tkazilishi.

Mustaqil topshiriqlar:

1. To'lov talabnomasi va to'lov topshiriqnomasi haqida to'liq ma'lumot to'plang.

2. Valuta schoti haqida to'liqroq ma'lumotga ega bo'ling

5-mashg'ulot

MATERIALLAR VA O'STIRUVDAGI MOLLAR HISOBI

Talabalarning darsga tayyorgarligini aniqlash:

1. Materiallar haqida tushuncha bering.
2. O'stiruvdagi mollarni hisobga olish haqida umumiy tushuncha bering.

Darsning maqsadi: talabalarda materiallarni hisobga olish bo'yicha ko'nikma hosil qilish. O'stiruvdagi mollarni hisobini yuritish tartibini o'rgatish.

Mashg'ulotning rejasi:

1. Materiallar turlari va uni baholashni o'rganish.
2. Materiallar kirimi va chiqimi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish.
3. Materiallar xarajati bilan bog'liq operatsiyalarni hujjatlari bilan tanishish.
4. O'stirishdagi hayvonlarni hisobga olishni o'rganish.
5. mavzuga doir topshiriqlar.

Adabiyotlar:

1. F. G'ulomova. Buxgalteriya hisobi bo'yicha amaliy qo'llanma. Toshkent, 1999-yil, 92 – 114-betlar.
2. I. Zavalishina. Yangicha buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2006-yil.
3. R. Radjapov, R. Do'smurotov. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi. Nukus, "Qoraqalpog'iston", 1994, 138 – 167-betlar.
4. F. G'ulomova. Yangicha hisobvaraqlar rejasi bo'yicha 3000 ta buxgalteriya o'tkazmalari. Toshkent, 2007-yil, 18 – 45-betlar.

Tayanch tushunchalar va iboralar: materiallar, asosiy vositalardan farqli ravishda, bir ishlab chiqarish jarayonida qatnashib, o'z qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga shu davrning o'zida to'la o'tkazadi.

Materiallar foydalanish bo'yicha quyidagi guruhlar bo'linadi:

- a) xomashyo, masalan, paxta, neft, ruda, ko'mir, yog'och-taxta;
- b) materiallar – ishlab chiqarilayotgan mahsulotning asosini tashkil etadi, ya'ni gazlama, charm, metall va hokozolar;

d) sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar, butlash buyumlari – motor, shinalar va boshqalar;

e) yoqilg‘i – ko‘mir, benzin, neft mahsulotlari;

f) idish va idish materiallari – yog‘och, karton, metall dan yasalgan, shisha va boshqa idishlar;

e) ehtiyot qismlar – mashina va mexanizmlarning detal, agregat va qismlari;

j) arzon va tez eskiruvchan buyumlar – xizmat muddati bir yilgacha bo‘lgan buyumlar.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan materiallar buxgalteriya hisobida quyidagi narxlarda baholanadi:

1. Shartnoma (erkin bozor) yoki davlat tomonidan belgilangan ulgurji narxlar. Asosan shartnoma narxlari korxonalar orasida shartnomalar tuzilganda mustaqil belgilanadi va mol yetkazib beruvchi korxonaning to‘lov hujjatlarida ko‘rsatiladi. Bu narxlardagi faktura qiymati ham deyiladi.

2. Rejadagi narxlar Rejadagi narxlarda shartnoma narxlariga rejalashtirilgan transport-tayyorlov xarajatlari qo‘shiladi.

3. Haqiqiy narxlar. Bu narxlar oying oxirida buxgalteriya tomonidan shartnoma narxlariga haqiqatdan sarflangan transport-tayyorlov xarajatlarini qo‘shib aniqlanadi.

1100 – hisobvaraqlarda korxonaga tegishli yosh hayvonlar; bo‘rdoqiga boqilayotgan yaylovdagi katta hayvonlar; parrandalar; yovvoyi hayvonlar; quyonlar; arilar oilalari; asosiy podadan sotish uchun qabul qilingan mollar hisobga olinadi.

Ularni hisobga olish quyidagi hisob varaqlarda amalda oshiriladi:

1110 “O‘stirishdagi hayvonlar”.

1120 “Bo‘rdog‘idagi hayvonlar”.

Korxonaga hayvonlarning o‘stirish uchun va bo‘rdog‘iga boqish uchun kelib tushishi ushbu hisobvaraqlarning debeti bo‘yicha, yosh hayvonlarning asosiy podaga o‘tkazilishi va yosh hayvonlar va boquvdagi hayvonlarning hisobdan chiqarilishi va sotilishi esa krediti bo‘yicha aks ettiriladi.

Masalalarni yechish tartibi va mashg‘ulotga doir topshiriqlar

Masala. Xo‘jalikda hayvonlarning parvarish qilinishi yoki bo‘rdoqiga boqilishiga oid xarajatlar quyidagicha aks ettiriladi:

●2010 – “Asosiy ishlab chiqarish” hisob varag‘ida (Agar chorvachilik asosiy faoliyat turi bo‘lib hisoblansa);

●2710 – “Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar” hisob varag‘ida (boshqa holatlarda).

Keyinchalik, ushbu xarajatlar hayvonlar tannarxini ko‘paytirishda kiritiladi, ya‘ni hayvonlar vaznining ortishi va o‘sishi ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi hisobvaraqlarda jamlangan xarajatlar summasi bo‘yicha aniqlanadi:

D t 1110, 1120

Kt 2010 (2710)

Masala. Tannarxi 260 ming so‘m bo‘lgan keraksiz ehtiyot qismlar QQS hisobga olingan holda 336 ming so‘mga sotib yuborilgan.

a) hisobda sotishning aks ettirilishi:

Dt – 4010 Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan hisobvaraqlar– 336

Kt – 9220 “Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” – 336

QQS hisoblab yozilganda:

Dt – 9220 “Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” – 56

Kt – 6410 “Byudjetga tulovlar bo‘yicha qarzlari” – 56

b) ehtiyot qismlarning tannarxi hisobdan chiqarilgan:

Dt – 9220 “Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” – 260

Kt – 1040 “Ertiyot qismlari” – 260

v) sotishdan olingan moliyaviy natija aks ettirilgan:

Dt – 9220 “Boshqa aktivlarning chiqib ketishi” – 20

Kt – 9320 “Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan olingan foyda” –

20.

Quyidagi operatsiyalarga provodka bering.

5.1. Topshiriq. Asosiy podadan yaroqsiz deb chiqarilgan hayvonlar chiqib ketishiga provodka bering.

5.2. Topshiriq. Hayvonlarning chetga chiqib ketishi, shu jumladan, asosiy podadan yaroqsiz deb chiqarilgan qoramolning tayyorlov korxonalariga topshirilishi quyidagi tarzda aks ettirilishiga provodka bering:

a) hayvonlar tannarxining hisobdan chiqarilishi;

b) ayni vaqtda xaridordan mazkur korxonaga ushbu mollar uchun to‘lashi kerak bo‘lgan summaga

5.3. Topshiriq. Yetkazib beruvchilardan materiallar olinganda.

5.4. Topshiriq. Materiallar uchun qisman oldindan to‘lov to‘langanda.

5.5. Topshiriq. QQS ni hisobga olgan holda 1 kg 1800 soʻmdan jami 3600 ming soʻmdan iborat summaga 2000 kg kalava ip olingan; 50 ming soʻmlik transport xarajatlari toʻlangan. Sotib oluvchi korxonaga QQS toʻlovchisi hisoblanadi.

a) hisobda ip kalavaning kelib tushishi;

b) transport xarajatlarining aks ettirilishi;

v) sotib olingan kalavaning qiymati $(3000+50) = 3050$ ming soʻmni tashkil qiladi. 1 kg ip kalava tannarxini aniqlash mumkin; u $(3050 \text{ ming soʻm} : 2000 \text{ kg}) q = 1,525$ soʻmga teng, kalava aynan mazkur baho boʻyicha hisobga olinishi kerak.

5.6. Topshiriq. 480 AQSH dollari summasiga qurilish materiallari olingan; MB kursi 1dollar uchun 969 soʻm. Ularning qiymati $(480 \times 969) = 465\,120$ soʻmni tashkil qiladi, buxgalteriya provodkasini bering

Mustaqil topshiriq.

5.7. Maktabga tannarxi 780 ming soʻm boʻlgan qurilish materiallari tekinga berilgan. QQS $(20\% \times 780) = 156$ ming soʻmni tashkil qiladi. Bunda provodkalar quyidagicha boʻladi:

a) QQS hisobga olingan holdagi materiallar chiqib ketishining aks ettirilishi;

b) materiallarning oʻz tannarxi boʻyicha hisobdan chiqarilishi;

v) QQS ning hisoblab yozilishi.

5.8 Masalan, hisobda 520 ming soʻmdan iborat qiymat boʻyicha hisobga olingan xoʻjalik inventari shoʻba korxonaning ustav kapitaliga ulush sifatida 800 ming soʻmdan iborat qiymat boʻyicha berilgan. Buni quyidagi tarzda aks ettirishi zarur:

a) QQS va ustav kapitaliga qilingan badalni hisobga olgan holda inventar chiqib ketishining aks ettirilishi;

b) inventar tannarxining hisobdan chiqarilishi;

v) QQS ning hisoblab yozilishi;

g) qimmatliklarning chiqib ketishidan olingan foydani $(800 - 133,3 - 520) = 146,7$ summasida aks ettirilishi.

6-mashg'ulot

TAYYOR MAHSULOT VA TOVARLARNI HISOBGA OLISH

Talabalarning darsga tayyorgarligini aniqlash:

1. Tayyor mahsulot haqida tushuncha bering.
2. Tovarlar haqida ma'lumot bering.

Darsning maqsadi: talabalarda buxgalteriyada tayyor mahsulot va tovarlarni hisobga olish bo'yicha amaliy ko'nikma hosil qilish, ularni rasmiylashtirish tartibi bilan tanishtirish.

Mashg'ulotning rejasi:

1. Tayyor mahsulot va uning baholanishi.
2. Tayyor mahsulot ishlab chiqarilishi va uni omborga qabul qilishning hisobi.
3. Tovarlar hisobi.
4. Mavzuga doir topshiriqlar va testlar.

Adabiyotlar:

1. F. G'ulomova. Buxgalteriya hisobi bo'yicha amaliy qo'llanma. Toshkent, 1999, 159 – 168-betlar.
2. I. Zavalishina. Yangicha buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2006-yil.
3. R.Radjapov, R. Do'smurotov. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi. Nukus, "Qoraqalpog'iston", 1994; 1997-yil, 3 – 9-betlar.
4. F. G'ulomova. Yangicha hisobvaraqlar rejasi bo'yicha 3000 ta buxgalteriya o'tkazmalari.

Tayanch tushunchalar va iboralar: **Tayyor mahsulot va uning baholanishi:** tayyor mahsulot – korxonada ishlab chiqarish jarayonining yakuniy mahsulotidir. Bu – mazkur korxonada qayta ishlanishi to'liq nihoyasiga yetkazilgan, standartlar talablariga va texnik shartlarga javob beruvchi buyumlar va mahsulotlar. Tayyor mahsulot quyidagi hisob va raqarlarda hisobga olinadi:

2810 "Ombordagi tayyor mahsulot".

2820 "Ko'rgazmadagi tayyor mahsulot".

2830 "Komissiyaga berilgan tayyor mahsulot".

Tovarlarini hisobga olish. Agar tovar-moddiy qimmatliklar sotish uchun tovarlar va prokat (ijara) buyumlari sifatida sotib olinadigan bo'lsa, ularning hisobi quyidagi hisobvaraqlarda amalga oshiriladi:

- 2910 "Ombordagi tovarlar".
- 2920 "Chakana savdodagi tovarlar".
- 2930 "Ko'rgazmadagi tovarlar".
- 2940 "Prokatdagi buyumlar".
- 2950 "Tovarlar bilan band va bo'sh idishlar".
- 2960 "Komissiyaga berilgan tovarlar".
- 2970 "Yo'ldagi tovarlar".
- 2980 "Savdo ustamasi".
- 2990 "Boshqa tovarlar".

Tovarlar valyutaga sotib olinishida ularning qiymati ularning hisobga qabul qilinishi sanasida O'zR Markaziy banki kursi bo'yicha so'mlarda aks etiriladi.

Tovarlarni sotish chog'ida ularning baholanishi zaxiralarni baholashning ikkita usulidan biri bo'yicha amalga oshiriladi:

- o'rtacha tannarxi bo'yicha (AVECO);
- vaqti jihatidan birinchi bo'lgan xarid qilishlar tannarxi bo'yicha (FIFO).

Masalalarni yechish tartibi va mashg'ulotga doir topshiriqlar

480. Masala. AQSH dollaridan iborat summaga tovarlar olingan; Markaziy bank kursi – 1 dollar uchun 969 so'm. Ularning qiymati (480 x 969) q 465 120 so'mni tashkil qiladi, buxgalteriya yozuvi esa quyidagicha bo'ladi:

D-t 2910 "Ombordagi tovarlar" – 465 120.

K-t 6010 "Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schotlar" – 465 120.

Masala. Xo'jalik yanvar oyida qaytadan sotish uchun uch marotaba bo'yoq sotib olgan deb taxmin qilaylik:

- 1) 3 yanvarda – 600 so'mdan 50 kg (jami 30 000 so'mgacha);
- 2) 12 yanvarda – 700 so'mdan 80 kg (jami 56 000 so'mga);
- 3) 23 yanvarda – 800 so'mdan 60 kg (jami 48 000 so'mga).

Jami 134 000 so'mdan iborat summaga 190 kg bo'yoq sotib olingan.

Bo'yoqning ombordagi qoldig'i 31 yanvarda 40 kg ni tashkil qildi.

Korxonada TMZlarni baholashning qaysi usuli qabul qilinganiga sotilgan tovarning tannarxi, demak, korxonaning foydasi ham, shuningdek, tovarning qoldiqlari mazkur davrning oxiriga borib hisobda aks etiriladigan summaga ham bog'liq bo'ladi.

Agar FIFO usulidan foydalanilgan bo'lsa, u holda birinchi bo'lib oldin xarid qilingan bo'yoq sotiladi, qoldiqda esa eng oxirgi turkumdagi bo'yoq qoladi.

Demak, FIFO usulidan foydalanilganda yanvar oyining oxirida bo'yoq zaxiralarining qiymati $(40 \text{ kg} \times 800 \text{ so'm}) = 32\,000 \text{ so'm}$ ni tashkil qiladi; sotilgani: $(50 \text{ kg} \times 600 \text{ so'm}) + (80 \text{ kg} \times 700 \text{ so'm}) + (20 \text{ kg} \times 800 \text{ so'm}) = 102\,000 \text{ so'm}$.

Agar AVECO usulidan foydalanilganda natijalar butunlay boshqacha bo'ladi. Mazkur holatda 1 kg bo'yoqning o'rtacha qiymatini hisoblab chiqish zarur; u $(134\,000 \text{ so'm} : 190 \text{ kg}) = 705,26 \text{ so'm}$ ni tashkil qiladi. Binobarin, $(150 \text{ kg} + 705,26 \text{ so'm})$ ning 105 789 so'mlik bo'yoq sotilgan, bo'yoqning yanvar oyi oxiridagi qiymati esa $(40 \text{ kg} + 705,26 \text{ so'm}) = 28\,211 \text{ so'm}$ ni tashkil qiladi.

4-son BHMSga binoan FIFO usuli afzal hisoblanadi; ushbu usul narxlarning o'sishi sharoitida tannarxning eng kam qiymatlarini beradi.

Tovarlarni, shu kabi boshqa barcha tovar-moddiy boyliklarni arzonlashtirish kechiktirilgan xarajatlarga, ularning sotilishiga qarab esa hisobot davri operatsion xarajatlariga kiritiladi.

Masala. Xo'jalik tomonidan qiymati 350 ming so'm bo'lgan tayyor mahsulot boshqa korxonaga qisqa muddatli qarz sifatida berilgan. Bunda quyidagi yozuvlar amalga oshirilishi zarur:

– chiqib ketishni aks ettirilishi (QQSni hisobga olgan holda, ushbu soliq to'lovchilari uchun);

D-t 5830 "Berilgan qisqa muddatli qarzlar" – 420;

K-t 9010 "Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromadlar" – 350;

K-t 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar" – 70;

● tayyor mahsulot qiymatining hisobdan chiqarilishi:

D-t 9110 "Sotilgan tayyor mahsulotning tannarxi" – 350;

K-t 2810 "Ombordagi tayyor mahsulot" – 350.

6.1. Topshiriq. Provodka bering.

1. Tayyor mahsulot sotildi.

2. Yuklab jo'natilgan mahsulot tannarxi hisobdan chiqarildi.

3. Yarmarkaga tayyor mahsulotlar jo'natildi.

4. Inventarizatsiya natijasida tayyor mahsulotlar ortiqcha chiqishi.

5. Asosiy ishlab chiqarishdan tayyor mahsulot kiritildi.

6. Tovarlar mol yetkazib beruvchilardan olinganda.

7. Tovarlar ustav fondiga ulush sifatida kiritilishi.

8. Tovarlar tekinga qabul qilinsa.

6.2. Topshiriq. Sotilayotgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi 8200 ming so‘m, foyda mahsulot tannarxining 30 % ni tashkil qiladi, QQS solig‘i to‘laydi (20 %). Quyidagi operatsiyalarga provodka bering.

a) mahsulotni sotishi;

b) mahsulot tannarxi hisobdan chiqishi.

6.3. Topshiriq. Qiymati 350 ming so‘m bo‘lgan tayyor mahsulot boshqa korxonaga qisqa muddatli qarz sifatida berilgan.

a) chiqib ketishi;

b) tayyor mahsulot qiymatining hisobdan chiqarilishi.

Topshiriq 6.4.

Fermer xo‘jaligi yetishtirgan 1200 ming so‘m don mahsulotlarini 25 % foydasi bilan sotdi. Mazkur operatsiyalarga provodka bering.

7-mashg'ulot

MEHNATGA HAQ TO'LASHNI HISOBGA OLISH

Talabalarning darsga tayyorgarligini aniqlash:

1. Mehnatga haq to'lashning hisobi haqida umumiy tushuncha bering.

Darsning maqsadi: talabalarda xodimlar mehnatiga haq to'lash shakllari, ularni hisoblash tartibi hamda uni hisobga olish haqida to'liq amaliy ko'nikmaga ega bo'lish.

Mashg'ulotning rejasi:

1. Mehnatga haq to'lash shakllari bilan tanishish.

2. Ishchilar bilan ish haqi va turli to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblarni buxgalteriyada aks ettirish tartibi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish.

3. Ish haqi haqidan daromad solig'i va boshqa turdagi ajratmalar hisoblash tartibini o'rganish.

4. Mavzuga doir topshiriqlar.

Adabiyotlar:

1. F. G'ulomova. Buxgalteriya hisobi bo'yicha amaliy qo'llanma. Toshkent, 1999- yil, 114 – 135-betlar.

2. F. G'ulomova. Yangi hisobvaraklar rejasi bo'yicha 3000 ta buxgalteriya o'tkazmalari. II jild, Toshkent, 2007-yil.

Tayanch tushunchalar va iboralar: ish haqi ishchilar daromadining asosiy manbai bo'lib, korxonada ishining yakuniy natijasini hisobga olgan holda har bir xodimning mehnatga qo'shgan qissasi bilan belgilanadi.

Ish haqi mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish va ishlarni bajarish)ga ketgan xarajatlarning kattagina qismini tashkil qiladi. Demak, ish haqi ishlab chiqarish (muomala) xarajatlarining muayyan qismi sifatida mahsulot tannarxini shakllantirishga va pirovard natijada – korxonaning foyda olishiga ta'sir etadi. Buxgalteriyaning asosiy vazifasi ish haqini to'g'ri hisoblash va uni o'z vaqtida ishchilarga berishdir.

Ish haqi o'z tarkibiga ko'ra, asosiy va qo'shimcha ish haqiga bo'linadi.

Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar korxonada ro'yxatida bo'lgan va ro'yxatda turmagan xo-

dimlarga mehnatga haq to'lash (mehnat haqining hamma turlari, mukofotlar, yordam, ishlaydigan pensiya oluvchilarga hisoblangan pensiya va boshqa to'lovlar) bo'yicha joriy qarzlarni to'g'risidagi axborotni umumiy lashtirish uchun mo'ljallangan.

6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashlar" hisob varaqining debet tomonida hisoblangan summadan daromad soligini ushlab qolish, ijro varaqalari bo'yicha to'lovlar va boshqa ushlab qolishlar, shuningdek, mehnat haqini, mehnat ta'tili bo'yicha to'lovlarni, mukofotlarni, pensiyalarni, nafaqalarni va shu kabilarni to'lash va undan ushlanmalar aks ettiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida hamda mamlakat tashqarisida yashovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan va O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatuvchi chet el fuqarolari tomonidan pul yoki natura shaklida olingan daromadlar summasi soliq solish obyekti bo'lib hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning ish haqlari, mukofot va boshqa daromadlaridan soliq quyidagi miqdorda undiriladi:

2008-yil uchun

Soliq solinadigan daromad miqdori	Soliq summasi
Eng kam ish haqining olti barobari miqdorigacha	Daromad summasining 13 %
Eng kam ish haqining olti barobari miqdoridan (+1) o'n barobari miqdorigacha	Eng kam ish haqining olti barovari miqdoridan olinadigan soliq+olti barovaridan oshadigan summaning 18%
Eng kam ish haqining o'n barovari miqdoridan (+1) va o'ndan yuqori miqdoridan	Eng kam ish haqining o'n barovari miqdoridan olinadigan soliq+o'n barovaridan oshadigan summaning 25%

Fermer xo'jaligida 2008-yil yanvar oyi uchun jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i hisob-kitobi:

Soliq solinadigan daromad miqdori	Soliq summasi
18630 x 6 = 111780 so'mgacha	Daromad summasining 13%
111780 so'mdan 186300 so'm-	14531+111780 so'mdan or-

gacha	tiq miqdorning 18 %
186301 so'm va undan yuqori	34651+186300 so'mdan ortiq miqdorning 25 %

Masalalarni yechish tartibi va mashg'ulotga doir topshiriqlar

Masala. Fermer xo'jaligi xodimiga 100 000 so'm ish haqi yozildi.

Yanvar oyi uchun jami daromad miqdori 100 000 so'm tashkil qiladi.

Xodimning ish haqidan yanvar oyi uchun daromad solig'i quyidagi tartibda ushlab qolinadi: $100\ 000 \times 13\% = 13000$ so'm

Fevral oyi uchun

Soliq solinadigan daromad miqdori	Soliq summasi
$37260 \times 6 = 223560$ so'mgacha	Daromad summasining 13%
223560 so'mdan 372600 so'm-gacha	29062+223560 so'mdan ortiq miqdorning 18 %
372601 so'm va undan yuqori	69302+372600 so'mdan ortiq miqdorning 25 %

Masala. Xo'jalik xodimiga 140 000 so'm ish haqi hisoblandi. Yanvar-fevral oylari uchun jami daromad miqdori 240 000 (100000 Q140000) so'mni tashkil qiladi. Yanvar oyi uchun ushlab qolingani soliq miqdori 13000 so'm.

Xodimning ish haqidan yanvar-fevral oylari uchun daromad solig'i quyidagi tartibda ushlab qolinadi.

1) yanvar-fevral oylari uchun soliq miqdori aniqlanadi:

$29062 + (240000 - 223560) \times 18\% = 29062 + 2959 = 32021$ (yanvar-fevral oylari uchun soliq miqdori);

2) fevral oyidagi daromaddan ushlab qolinishi lozim bo'lgan soliq summasi aniqlanadi: $32021 - 13000 = 19021$ so'm.

Mart oyi uchun

Soliq solinadigan daromad miqdori	Soliq summasi
$55890 \times 6 = 335340$ so'mgacha	Daromad summasining 13 %
335340 so'mdan 558900 so'm-gacha	43593+335340 so'mdan ortiq miqdorning 18 %

558900 so‘m va undan yuqori	103953+558900 so‘mdan ortiq miqdorning 25 %
-----------------------------	---

Masala. Xo‘jalik xodimiga 350 000 so‘m ish haqi hisoblendi. Yanvar-mart oylari uchun jami daromad miqdori 590 000 (100000+40000+350000) so‘mni tashkil qiladi. Yanvar fevral oyi uchun ushlab qolingani soliq miqdori 32021 so‘m.

Xodimning ish haqidan yanvar-mart oylari uchun daromad solig‘i quyidagi tartibda ushlab qolinadi.

1) yanvar-mart oylari uchun soliq miqdori aniqlanadi:
 $103953+(590000-558900) \times 25 \% = 103953+7775 = 111728$ (yanvar-mart oylari uchun soliq miqdori;

2) mart oyidagi daromaddan ushlab qolinishi lozim bo‘lgan soliq summasi aniqlanadi: $111728 - 32021 = 79707$

7.1. Topshiriq. Provodka bering.

1. O‘rnatiladigan asbob-uskunani xarid qilish va saqlash bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha mehnat haqini hisoblash .

2. Asbob-uskununi o‘rnatish va sozlash bilan band bo‘lgan xodimlarga mehnat haqini hisoblash.

3. Asosiy podani shakllantirish bilan band bo‘lgan xodimlarga mehnat haqi hisoblash.

4. Materiallarni xarid qilish bilan band bo‘lgan xodimlarga mehnat haqini hisoblash.

5. Hayvonlarni xarid qilish bilan band bo‘lgan xodimlarga mehnat haqini hisoblash.

6. Asosiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan xodimlarga mehnat haqini hisoblash.

7. Mahsulotni yetkazib berish va sotish bilan band bo‘lgan xodimlarga mehnat haqini hisoblash.

7.2. Topshiriq. Fermer xo‘jaligi a‘zosiga aprel-may-iyun oylari uchun, har bir oy uchun 120 000 so‘mdan ish haqi yozildi. Daromd solig‘ini toping va provodka bering.

7.3. Topshiriq. Xodimga yanvar-avgust oylari uchun har bir oyga 90000 so‘mdan ish haqi yozildi. Ushbu daromadga soliq hisoblang va provodka bering.

7.4. Topshiriq. Xo‘jalik ishchilariga ish haqi yozildi. 1-ishchiga yanvar oyi uchun 50000 so‘m, fevral oyi uchun 50000 so‘m, mart va ap-

rel oylari uchun 135000 soʻmdan, may va iyun oylari uchun 156000 soʻmdan hisoblandi. Mazkur daromadlarga soliq hisoblang va provodka bering.

7. 5. Topshiriq. Fermer xoʻjaligida 12 ta ishchi ishlaydi. Ularning 4 tasiga 125000 soʻmdan, qolganiga 95000 soʻmdan ish haqi hisoblangan. Shu daromadlardan soliq ushlang va provodka bering.

7. 6. Topshiriq. Provodka bering.

1. Yaroqsizlikdan yoʻqotishlarning bir qismi ushbu yoʻqotishlarga aybdor boʻlgan xodimlardan ushlab qolinishi.

2. Mehnat haqi boʻyicha berilgan boʻnaklarni mehnat haqidan ushlab qolish.

3. Xodimlarga hisoblangan summalarni kassadan toʻlash.

4. Ijtimoiy sugʻurta boʻyicha hisoblashlarni korxonada xodimlari hisobidan amalga oshirish.

5. Korxonada xodimiga qisqa muddatli qarz berish.

7.7. Topshiriq. Jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq boʻyicha imtiyozlarni yozib keling.

8-mashhulot

MAHSULOT ISHLAB CHIQRARISH VA SOTISH BILAN BOG'LIQ XARAJATLARNI HISOBGA OLISH VA MAHSULOT TANNARXINI KALKULYATSIYA QILISH

Talabalarning darsga tayyorgarligini aniqlash:

1. Xarajatlar haqida umumiy tushuncha bering.
2. Tannarx nima.
3. Kalkulatsiya haqida tushuncha bering.

Darsning maqsadi: talabalarda ishlab chiqarish xarajatlarini hisobini olib borish, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari bilan tanishtirish.

Mashg'ulotning rejasi:

1. Mahsulot ishlab chiqarish hamda sotish xarajatlari va ularning turkumlanishi.
2. Ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarning hisobi bilan tanishish.
3. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishni o'rganish.
4. Mavzuga doir topshiriqlar va testlarni bajarish.

Adabiyotlar:

1. F. G'ulomova. Buxgalteriya hisobi bo'yicha amaliy qo'llanma. Toshkent, 1999-yil, 138 – 149-betlar.
2. I. Zavalishina. Yangicha buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2006-yil, 290 – 303-betlar.
3. R. Radjapov, R. Do'smuratov. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi. Nukus, "Qoraqalpog'iston", 1994, 214 – 224-betlar.

Tayanch tushunchalar va iboralar: mahsulot (ishlar va xizmatlar)ning ishlab chiqarish xarajatlari o'z ichiga bevosita va bilvosita, o'zgaruvchan va doimiy ishlab chiqarish xarajatlarini oladi.

Bevosita xarajatlar – quyidagi mahsulot birliklarining ishlab chiqarilishi bilan bevosita bog'liq xarajatlardir.

- moddiy ishlab chiqarish xarajatlari;
- asosiy ishlab chiqarish ishchilarining ish haqiga oid xarajatlar;
- ishlab chiqarishga taalluqli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga oid ajratmalar.

Ko'rsatib o'tilgan xarajatlar o'zgaruvchan xarajatlardir, chunki ularning hajmi ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi bilan bevosita bog'liq.

Bilvosita xarajatlar – yordamchi ishchilarning vaqtbay ish haqi, ishlab chiqarish asosiy vositalari amortizatsiyasi, ishlab chiqarish asosiy vositalarini saqlash, joriy va kapital ta'mirlanishi kabi, ishlab chiqarish xarajatlari va boshqa, mahsulot hajmining o'zgartirilishidan qat'i nazar, nisbatan doimiy bo'lib qoluvchi xarajatlardir.

Korxonaning asosiy faoliyati turi bo'lib hisoblanuvchi mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ga oid asosiy ishlab chiqarish xarajatlari 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" hisobvarag'ida aks ettiriladi.

Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishning yakuniy bosqichi mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishdir.

Kalkulyatsiya qilish natijasida xarajatlar ishlab chiqarilgan mahsulot turlari o'rtasida taqsimlanib, mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlarning qiymati aniqlanadi.

Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish unga asoslangan holda narx-navolarni qo'yish uchun, shuningdek, xarajatlarni kamaytirish rezervlarini aniqlash uchun kerak.

2010 "Asosiy ishlab chiqarish" hisobvarag'i bo'yicha oy oxiriga qoldiq yakunlanmagan ishlab chiqarishning tannarxini aks ettiradi.

Masalalarni yechish tartibi va mashg'ulotga doir topshiriqlar

Masala. Quyidagi operatsiyalar to'g'risida ma'lumotlar mavjud:

Ishlab chiqarishga sarflandi:

1. Materiallar	15000 ming so'm
2. Energiya	3700 ming so'm
3. Ish haqi	16200 ming so'm
4. Mukofotlar	2000 ming so'm
5. Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar	6480 ming so'm
6. Umumishlab chiqarish sarflari	5600 ming so'm

Tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlari:

Oyning boshiga	23940 ming so'm
Oyning oxiriga	19250 ming so'm

Hisobvaraqlarda bu quyidagicha ifodalanadi:

2010 “Asosiy ishlab chiqarish” hisob varag’i

Debet	Kredit
Oy boshiga qoldiq 23940 ming so‘m	
1010 15000 ming so‘m	
6010 3700 ming so‘m	53670 ming so‘m
6710 162000 ming so‘m	
6710 2000 ming so‘m	oborot 53670 ming so‘m
6520 6480 ming so‘m	
2510 5600 ming so‘m	
Oborot 48980 ming so‘m	
Oyning oxiriga qoldiq	
19250 ming so‘m	

Ishlab chiqarishning haqiqiy tannarxi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi: $T = X + B - O$

Bu yerda: T – ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi, X – ishlab chiqarish xarajatlari – 2010 hisobvarag‘ining debetidagi oborotlar, B – tugallanmagan ishlab chiqarishning oy boshiga qoldig‘i, O – tugallanmagan ishlab chiqarishning oy oxiriga qoldig‘i.

$$53670 = 48980 + 23940 - 19250$$

G‘alla ekinlari mahsulotning tannarxini isoblash.

G‘alla ekinlari mahsulotining tannarxi ularga qayta ishlov berish, quritish natijasida kamayishi va xo‘jalikda foydalanilmaydigan xas-

cho'plar vazni chiqarib tashlangandan keyingi vaznda aniqlanadi. Masalan, "Farhod" fermer xo'jalik kiringga olingan g'allaning vazni 580 s. Undan tashqari 754 sentner somon olingan. Demak, 580 sentner sof g'alla 754 sentner somon tannarxini aniqlash kerak.

G'allaning tannarxini aniqlash uchun 2010 – "o'simlikchilik" subschyotning tegishli analitik schyotida g'allaning mazkur turi bo'yicha hisobga olingan barcha xarajatlar summasidan somon uchun normativlar bo'yicha qilinadigan xarajat (o'rib-yig'ib olish, presslash, jo'natish, g'aramlash) lar summasi chegirib tashlanadi. Qolgan summa don hajmiga mutanosib taqsimlanadi. Xo'jalikda don yetishtirish uchun 5150 ming so'm, somon uchun 3770 ming so'm xarajat qilindi. 1 kg donning tannarxi 89 so'm (5150000:58000), 1 kg somonning tannarxi 46 so'm (3468400:75400).

Paxta tannarxini hisoblash

Paxtachilikda o'rta tolali va ingichka tolali paxta navlari mahsulot tannarxini aniqlash obyekti bo'lib hisoblanadi. G'ozapoya va g'ozapo'choq (agar foydalanilsa) yordamchi mahsulot bo'lishi mumkin.

1 sentner paxtaning tannarxini aniqlash uchun g'ozapoya va g'ozapo'choqlar normativ xarajatlarda baholanib paxtachilik bo'yicha ilingan umumiy xarajattan chegirib tashlanadi. Qolgan xarajat summasi hisobga o'tgan paxta miqdoriga bo'linadi.

Misol. "Farhod" fermer xo'jaligida hisobga o'tgan 95 sentner o'rta-tolali paxtani yetishtirish uchun 2892300 so'm sarflangan. G'ozapoya va g'ozapo'choqlarning normativ xarajatlar bo'yicha qiymati 120000 so'm. Demak, 1 sentner paxta tannarxi 291,8 so'mni tashkil etdi (2792300 – 120000):9500 paxtaning tannarxini alohida navlari bo'yicha aniqlashda xarajatlar summasi, ularning xarid bahosi bo'yicha aniqlangan qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlanadi. So'ng mazkur navga tegishli xarajadni shu navdagi paxta miqdoriga bo'lish yo'li bilan 1 sentnerning tannarxi aniqlanadi.

Chorvachilik maxsulotlari tannarxini hisoblash

Yil oxirida chorvachilik mahsulotlari tannarxini hisoblashdan oldin 2020 – "Chorvachilik" subschyoti bo'yicha hisob ma'lumotlari puxta tekshiriladi. Har bir chorva turi (guruhi) bo'yicha umumiy xarajatlar va yil davomida olingan mahsulotlarning umumiy summasi aniqlanadi. Bunda xarajatlar hisob obyektlari bo'yicha to'g'ri taqsimlanishi, kishi-soatlar, oziq-kunlar va oziq birliklar to'g'ri hisobga olinishi, chorvachilikning ay-

rim tarmoqlari (parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik, tuyachilik) bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarish hajmining to'g'ri aniqlanishi, olingan asosiy va qo'shimcha mahsulotlar va qiymatining to'g'ri aks ettirilishiga e'tibor berish zarur.

Chorvachilikda asosiy mahsulotlar sut, jun, tuxum, nasl, tirik vazn, umumiy tirik vazn va boshqalar tannarx hisoblash obyektlari bo'lib hisoblanadi. Bunda ko'pchilik tarmoqlarda bir vaqtning o'zida o'zaro bog'liq mahsulotning bir qancha turlari olinadi. Sut yo'nalishidagi qoramollardan sut va nasl; qo'ychilik jun, nasl, qo'shilgan vazn parrandachilik – tuxum, go'sht va boshqalar olinadi. Shu sababli xarajat obyektlari bilan tannarx hisoblash obyektlari bir-biridan farq qiladi va mahsulot turlari o'rtasida xarajatlarni to'g'ri taqsimlash zarurati tug'iladi. Chorvachilikda qo'shimcha mahsulotga go'ng, parranda axlati, jun tivit, pat, teri hamda nobud bo'lgan hayvonlardan olingan nimalangan go'sht va boshqalar kiradi.

Sut yo'nalishidagi chorvachilikda mahsulotlar tannarxini hisoblash

Bu yo'nalishdagi chorvachilikda tannarx hisoblash obyekti bo'lib olingan sut va buzoqlar hisoblanadi.

Bir sentner sut va bir bosh buzoqning tannarxining hisoblash uchun sut yo'nalishidagi qoramollarga qilingan yillik xarajatlar summasidan go'ng, tullashdan tushgan jun va boshqa shunga o'xshash qo'shimcha mahsulotlar qiymati chegirib tashlanadi.

Topshiriq. "Nurli Zamin" fermer xo'jaligida paxta va don yetishtirish uchun quyidagicha xarajat qilingan.

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Paxta	G'alla	Jami
1	Maydoni	ga	2,3	31,25	33,55
2	Hosildorlik	ts/ga	40	54	
3	Yalpi hosil	tonna	9,2	168,7	177,9
4	Xarajatlar, jami	M, so'm	2792,3	24757,6	27549,9
	Sh.j. ish haqi	M,so'm	1024,8	1647,8	2672,6
	Majburiy to'lovlar	M, so'm	256,2	411,6	667,8
	Mineral o'g'it	M, so'm	480	11120,2	11600,2

	Kimyoviy vositalar	M, so'm	48	1111,6	1159,6
	Yoq'ilg'i moylash materiallari	M, so'm	366	3816,4	4182,4
	Texnika xizmati	M, so'm	436,8	4796,4	5233,2
	Boshqa xarajatlar	M, so'm	36	435,4	472,4
	Soliqar	M, so'm	53,8	527,8	581,6
	Boshqa to'lovlar	M, so'm	90,7	890,4	981,1

8.1. Topshiriq. Yuqoridagi jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib, xo'jalikdagi xarajatlarga provodka bering.

A) paxtachilikdagi xarajatlarga;

B) g'allachilikdagi xarajatlarga;

V) jami xo'jalikdagi xarajatlarga.

8.2. Topshiriq. 1 kg paxtaning tannarxini toping.

8.3. Topshiriq. 1 kg donning tannarxini toping.

8.4. Topshiriq. 1 kg somonning tannarxini toping (jami g'allaga qilingan xarajatning 40 % ni tashkil qiladi).

9-mashg'ulot

KORXONA DAROMADLARI VA XARAJATLARI HISOBI

Talabalarning darsga tayyorgarligini aniqlash:

1. Korxonada daromadlarini aytib bering.
2. Korxonada xarajatlari haqida tushuncha bering.

Darsning maqsadi: Talabalarda korxonadagi daromadlar va xarajatlari haqida to'liq tushuncha hosil qilish. Daromadlar va xarajatlarni hisobga olish tartibini o'rgatish.

Mashhulot rejasini:

1. Asosiy faoliyatning daromadlarini hisobga olish.
2. Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga olish tartibi.
3. Davr xarajatlari hisobi.
4. Yakuniy moliyaviy natijalar hisobi.
5. Mavzuga doir topshiriqlar.

Adabiyotlar:

1. F. G'ulomova. Buxgalteriya hisobi bo'yicha amaliy qo'llanma. Toshkent, 1999-yil.
2. I. Zavalishina. Yangicha buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2006-yil.
3. R. Radjapov, R. Do'smurotov. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi. Nukus, "Qoraqalpog'iston", 1994.

Tayanch tushunchalar va iboralar: asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi hisobvaraqlar tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shuningdek, sotilgan tovarlarning qaytarilishi, sotuvga oid va baholardan chegirmalar to'g'risida axborotni umumlashtirish uchun mo'ljallangan.

Hisob quyidagi hisobvaraqlarda amalga oshiriladi:

9010 "Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar";

9020 "Tovarlarini sotishdan daromadlar";

9030 "Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar";

9040 "Sotilgan tovarlarning qaytishi";

9050 "Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar".

Hisobot davrining oxirida 9010 “Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar”, 9020 “Tovarlarni sotishdan daromadlar”, 9030 “Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar” hisobvaraq-lari 9910 “Yakuniy moliyaviy natija” hisobvarag‘i bilan yopiladi.

Xarajatlar – mahsulotlarning (tovarlarning) yetkazib berilishi yoki ishlab chiqarilishi, xizmatlarning ko‘rsatilishi yoki boshqa bir, xususi kapitalining kamayishiga olib keluvchi, biroq uning qatnashchilar o‘rtasida taqsimlanishi bilan bog‘liq bo‘lmagan faoliyat turlarining amalga oshirilishi oqibatida aktivlarning kamayishi yoki boshqa xil sarflanishi yoki va qarzlarning (passivlarning) yuzaga kelishidir. Ya‘ni, xarajatlarning asosiy alomatlaridan biri bo‘lib, ularning o‘z kapitali summasining kamayishiga olib kelishi hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobi maqsadlarida xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi nizomga binoan xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan qilingan barcha xarajatlar quyidagi tarzda guruhlantiriladi:

– maxsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;

a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;

b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;

v) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan, ishlab chiqarishga oid qo‘shimcha xarajatlar.

– ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olinadigan foydani hisobga oladigan davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlar;

a) sotishga oid xarajatlar;

b) boshqarish bo‘yicha xarajatlar (ma‘muriy xarajatlar);

v) boshqa operatsion xarajat va zararlar.

– xo‘jalik yurituvchi subyektning uning umumxo‘jalik faoliyatidan olinadigan foyda yoki zararni hisob-kitobi chog‘ida hisobga olinadigan moliyaviy faoliyatga oid xarajatlar;

a) foizlar bo‘yicha xarajatlar;

b) xorijiy valyutaga oid operatsiyalar bo‘yicha kursdagi manfiy farqlar;

v) qimmatli qog‘ozlarga qo‘yilgan mablag‘larni qayta baholaniishi;

g) moliyaviy faoliyatga oid xarajatlar.

– daromadlar (foyda) solig'i to'languniga qadar foyda yoki zararlarining hisob-kitobi chog'ida hisobga olinadigan favqulodda zararlar.

Masalalarni yechish tartibi va mashg'ulotga doir topshiriqlar

Masala. Ta'minot-sotish tashkiloti tomonidan tannarxi 42 000 so'm bo'lgan tovar, QQSni hisobga olgan holda, oldindan 15 % lik to'lov hisobiga 60 000 so'mga sotilgan.

1. Oldindan 15 %lik to'lov olingan:

Dt 5110 "hisob-kitob varagi" – 9000;

Kt 6310 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar" – 9000.

2. Tovarining sotilishi aks ettirilgan:

Dt 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar" – 60 000;

Kt 9020 "Tovarlar sotilishidan olingan daromadlar" – 50000;

Kt 6410 «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlار» QQS – 10000.

3. Ilgari olingan bo'nak hisobdan chiqarildi:

Dt 6310 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar" – 9000;

Kt 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schotlar" – 9000.

4. Sotilgan tovarning tannarxi hisobdan chiqarilgan:

Dt 9120 "Sotilgan tovarlar tannarxi" – 42000;

Kt 2910 "Ombordagi tovarlar" – 42000.

5. Xaridorning debitorlik qarzi koplendi:

Dt 5110 – 51000;

Kt 4010 – 51000.

6. Schotlarning yopilishi:

Dt 9020 "Tovarlar sotilishidan olingan daromadlar" – 50000;

Kt 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" – 50 000;

Dt 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" – 42 000;

Kt 9120 "Sotilgan tovarlar tannarxi" – 42000.

Yakuniy moliyaviy natijaning Kt tomonida (ya'ni foyda) 8000 so'm

9.48. Topshiriq. Kseroksning sotilishi bahosi 600 ming so'mni tashkil qiladi. Ushbu bahoga, oldi-sotdi shartnomasiga binoan, kseroks-

ga bir yil davomida sotishdan keyingi xizmat ko'rsatish summasi – 120 ming so'm (har oyda 10 ming so'm) kiritilgan. Mazkur holatga provodka bering.

9.49. Topshiriq. QQSni hisobga olgan holda tannarxi 36000 so'm bo'lgan mahsulot 60000 so'mga, oldindan 100 % to'lov bilan sotilgan.

1. Oldindan to'lov olinganda.

2. QQSni hisobga olgan holda mahsulotning sotilishi aks ettirilgan-da.

3. Olingan bo'naklar hisobga kiritilganda.

4. Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi hisobdan chiqarilganda.

5. Sotishdan olingan natija (foyda va zarar).

6. Hisobot davrining oxirida 9000 va 9100 schotlarning yopilishi.

7. Foyda solig'ining hisoblab yozilishi.

8. 9810 schotning yopilishi.

9. 50. Topshiriq. Qurilish ishlarining qiymati 10000 ming so'mni tashkil qiladi. Buyurtmachi tomonidan 3000 ming so'm miqdorida bo'nak o'tkazilgan, qurilish nihoyasiga yetkazilganidan va bajarilgan ishlar dalolatnomasi imzolangandan so'ng qolgan barcha summa to'langan.

Yuqoridagi topshiriqning shartlaridan foydalanib, mazkur operatsiyalarga provodka bering.

10-mashg'ulot

KORXONALARDAN OLINADIGAN SOLIQLAR HISOB-KITOBINI VA HISOBINI YURITISH TARTIBI

Talabalarning darsga tayyorgarligini aniqlash:

1. Soliqlar haqida umumiy tushuncha bering.
2. Byudjet bilan hisob-kitoblar haqida tushuncha bering.

Darsning maqsadi: talabalarda korxonalaridagi soliqlar va ularni hisoblash tartibi bilan tanishtirish. Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlikni buxgalteriyada aks ettirish ko'nikmasini hosil qilish.

Mashg'ulot rejasini:

1. Soliqlar va ularning turkumlanishi haqida to'liq tushunchaga ega bo'lish.
2. Yuridik shaxslarning daromadidan olinadigan soliq hisoblash va to'lash tartibi bilan tanishish.
3. Yagona yer solig'ini hisoblash va hisobga olish tartibi o'rganish.
4. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlarni hisobga olishni o'rganish.
5. Mavzuga doir topshiriqlar.

Adabiyotlar:

1. Soliq kodeksi. 2008-yil.
2. I. A. Zavalishina. Soliqlar: nazariya va amaliyot. Toshkent, 2005, 421 – 430-betlar.
3. I. A. Zavalishina. Yangicha buxgalteriya hisobi. T., 2004, 349 – 352-betlar.

Tayanch tushunchalar va iboralar: ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar 2008-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan Soliq kodeksiga asoslangan.

O'zbekiston Respublikasi hududida ushbu Kodeksda nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi.

Soliqlarga quyidagilar kiradi:

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) aksiz solig'i;

5) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;

6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

7) mol-mulk solig'i;

8) yer solig'i;

9) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;

10) jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;

Boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi:

1. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar:

– yagona ijtimoiy to'lov;

– fuqarolarning budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;

– byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

2. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar:

– respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

– respublika yo'l jamg'armasiga yig'implar;

3. Davlat boji;

4. Bojxona to'lovlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 10-oktabrdagi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 26-dekabrda 539-son qaroriga muvofiq, qishloq xo'jalik tovarlari ishlab chiqaruvchilarining budjetga to'lovlari ixchamlashtirildi va yagona yer solig'i to'lash ular uchun joriy etildi.

Qishloq xo'jalik tovarlari ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'i joriy etilishi bilan ular quyidagi soliqlar va yig'implarni to'lashdan ozod etiladi:

– daromad (foydaga) solig'i;

– qo'shilgan qiymat solig'i;

– ekologiya solig'i;

– suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

– yer solig'i;

– yer ostidan foydalanganlik uchun soliq;

– mol – mulk solig'i;

– ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish solig'i;

– boshqa mahalliy soliqlar va yig'implar.

Yagona yer solig'ini to'lovchilar bo'lib qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlari), fermer xo'jaliklari, agrofirmalar, shuningdek, boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar hisoblanadi.

Bu yuridik shaxslar qishloq xo'jalik mahsulotini ishlab chiqarish bilan birga, boshqa xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishidan qat'i nazar, yagona yer solig'ini to'lovchilar hisoblanadilar.

Masalalarni yechish tartibi va mashg'ulotga doir topshiriqlar **Soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi**

Yagona yer solig'ini to'lovchilar mustaqil ravishda, yer mulklari, bazaviy stavkalar va tuzatish koeffisientlaridan kelib chiqib, hisoblab chiqaradilar.

Yerlarning har bir turi bo'yicha yagona yer solig'i summasi quyidagi formula bo'yicha belgilanadi:

$$S = S_{ey} \times C_c \times K_t,$$

Bu yerda: S – yagona yer solig'i summasi, so'mlarda, S_{ey} – yer uchastkasi maydoni, gektarlarda, S_s – soliqning bazaviy stavkasi, 1 gektar uchun so'mlarda, K_t – tuzatish koeffitsiyenti.

Qishloq xo'jaligi yerlari uchun yagona yer solig'ining bazaviy stavkalari sifatida qabul qilingan:

- sug'oriladigan yerlar bo'yicha – 1 toifadagi yerlar (bonitet balli 10 gacha);
- lalmikor yerlar bo'yicha – tekislik zonasi yerlari;
- pichanzorlar va o'tloqlar bo'yicha – "Cho'l" mintaqasi yerlari.

Yerlarning qayerda joylashgani va sifatiga (ball bonitetga) bog'liq ravishda bazaviy stavkalar tegishli tuzatish koeffisientlariga tuzatiladi.

Ball-bonitet – bu yerning sifatini qatlamining unumdorligini, joylashgan joyini, suv bilan ta'minlanganligini va yo'l qatnoviga qulay joylashganligini hisobga olgan holdagi bahosi.

Yagona yer solig'ining bazaviy stavkalari 2005-yil uchun 1 ga uchun – so'mlarda.

8-jadval

Mintaqalar	Sug'oriladigan yerlar (1 toifa)	Lalmikor yerlar tekislik zonasi)	Pichanzor va yaylovlar ("Cho'l" mintaqasi)
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1737,8	–	49,4
Andijon viloyati	2637,2	316,9	66,6
Buxoro viloyati	286,1	–	66,6
Jizzax viloyati	1990,6	299,5	61,6
Qashqadaryo viloyati	926,2	331,0	79,2
Navoiy viloyati	1853,3	299,5	66,6
Namangan viloyati	2718,3		66,6
Samarqand viloyati	1589,6	299,5	61,6
Surxondaryo viloyati	2450,4	–	61,6
Sirdaryo viloyati	2112,9	–	49,4
Toshkent viloyati	6816,4		
Farg'ona viloyati	1737,8	–	49,4
Xorazm viloyati	2637,2	316,9	66,6
Toshkent shahri	2286,1	–	66,6

Yagona yer solig'ining soliq solish obyekti bo'lib, xo'jaligi yerlari va jamoat imoratlari bilan band bo'lgan yerlarning me'yoriy qiymati hisoblanadi. Soliq solish maqsadida jamoat imoratlari deganda ushbu imoratlar bilan butun birlik tashkil etadigan yong'inga qarshi va sanitariya oraliqlarini qo'shgan holda qurilmalar majmuyi tushuniladi.

Budjetga to'lanadigan yagona yer solig'ining summasi qishloq xo'jaligi yerlari va jamoat imoratlari bilan band bo'lgan yerlarning umumiy maydoniga hisoblangan soliq summasidan soliq to'lanmaydigan yerlarga (amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lanmaydigan yerlar) hisoblangan soliq summasining farqi sifatida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S = S1 - S2,$$

Bunda: S –budgetga to‘lanadigan yagona yer solig‘ining summasi; S1 – qishloq xo‘jaligi yerlari va jamoat imoratlari bilan band bo‘lgan yerlarning umumiy maydoniga hisoblangan soliq summasi; S2 – soliq to‘lanmaydigan yerlarga to‘g‘ri keladigan soliq summasi.

Yagona yer solig‘ining bazaviy stavkalariga tuzatish koefitsiyentlari

9-jadval

Ko‘rsatkichlar	Koeffitsiyentlar
Sug‘oriladigan yerlar	
0–10 ball – boniteti	(bazaviy stavka)
11– 20	1,50
21– 30	2,25
31– 40	3,29
41–50	4,67
51–60	6,54
61–70	9,00
71–80	11,68
81–90	14,55
91–100	17,50
Baholanmagan yerlar	4,67
Lalmikor yerlar	
Tekislik zonasi	(bazaviy stavka)
Tekislik – tepalik zonasi	1,19
Tog‘oldi va tog‘ zonasi	1,67
Pichanzor va yaylovlar	
“Cho‘l” mintaqasi	(bazaviy stavkasi)
“Adir” mintaqasi	1,51
“Tog‘” mintaqasi	2,05
Jamoat binolari va hovlilarini band qilgan yerlar	
Sug‘oriladigan yerlar stavkasi (1 toifa) – bazaviy stavka	20,44
Suv havzalari, kanallar, kollektorlar va yo‘llar bilan band yerlar	
Sug‘oriladigan yerlar stavkasi (1 toifa) – bazaviy stavka	0,04
Qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar	
Sug‘oriladigan yerlar stavkasi (1 toifa) – bazaviy stavka	0,004

Yagona yer solig‘ining hisoblab chiqarilgan summasi yer uchastkasi joylashgan yerdagi mahalliy budjetga to‘lanadi. Bunda soliq summasi qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchining xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda to‘lanadi.

Ijtimoiy imoratlar, suv havzalari, kanallar, kollektorlar va yo‘llar band qilgan yerlar, shuningdek, qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar bo‘yicha bazaviy stavkalar sifatida tegishli tuman va shaharlarning sug‘oriladigan yerlari bo‘yicha tasdiqlangan stavkalar qabul qilinadi.

Qishloq xo‘jalik tovarlari ishlab chiqaruvchilarga yil davomida ajratilgan yer uchastkalarini uchun soliq yer uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan boshlab to‘lanadi.

6410 – “Byudjetga (turi bo‘yicha) to‘lovlar bo‘yicha qarzlari” schyoti korxonaning soliqqa oid majburiyatlarini aks ettirish uchun mo‘ljallangan. Bu joriy qarzlari. 6410 – “Byudjetga to‘lovlarga oid qarzlari” hisob varag‘ida har bir soliq bo‘yicha tahliliy hisob olib borish lozim.

6411 “QQS bo‘yicha qarzlari”;

6412 “Daromad (foyda) solig‘i bo‘yicha qarzlari”;

6413 “Mol-mulk solig‘i bo‘yicha qarzlari”

6415 “Daromad solig‘i bo‘yicha qarzlari”;

6419 “Yagona ijtimoiy to‘lov bo‘yicha qarzlari.”

Ijtimoiy jamg‘armalariga majburiy to‘lovlar. Yagona ijtimoiy to‘lov to‘lovchilar yuridik shaxslar hisoblanadi.

Ish haqi tarzidagi daromadlar yagona ijtimoiy to‘lovning va sug‘urta badallarining soliq solish obyektidir.

